

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

**FALSAFA FAKULTETI
PSIXOLOGIYA YO‘NALISHI**

SAIDOVA MAXFUZA CHORIEVNA

“MEN” KONSEPSIYASINI RIVOJLANTIRISH

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR:

dos.v/b: O‘.B.Shamsiev

TAQRIZCHI:

dos.v/b : N.M.Mullaboeva

TOSHKENT – 2014

Mundarija

Kirish.....	3
I Bob Shaxs taraqqiyotiga erishishning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirish va o'z-o'zini anglash jarayonida “Men” obrazining ahamiyati.....	13
1.1. “Men” konsepsiyasining kelib chiqish tarixi va uning rivojlanish	13
1.2. Oilaviy munosabatlar tizimida bolaning o'zini-o'zi anglashi jarayoni.....	22
1.3. Shaxs bo'lib shakllanishida “Men” obrazi va o'zini-o'zi baholash jarayonining eng muhim bosqichlari.....	30
Bob yuzasidan xulosa.....	41
II Bob “Men” konsepsiyasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi oiladagi ota-ona shaxslararo munosabatlarini tadqiq qilish bosqichlari.....	43
1.1. Oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi va bolalarda “Men” konsepsiyasining rivojlanish darajalarini tadqiq etish natijalarining tahlili.....	43
1.2. Maktabgacha yoshdagi bolaning “Men” konsepsiyasi shakllanishiga ta'sir etuvchi oiladagi shaxslararo munosobatlarni o'rganish natijalar.....	53
Bob yuzasidan xulosa.....	61
Xulosa.....	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	69

Kirish

Respublikamizhartomonlamarivojlanibborayotganbirpalladabugungikunyosh larihamaRespublikamizgullabyashnashidao'zhissalariniqo'shmog'ilozim.

ShuboisushbubitiruvmalakaviyishimizniprezidentimizI.A.KarimovningKonsitutsiy amizningqa'bulqilinganligiga 21-yilto'lganligiva2014-yil "SOG`LOMBOLAYILI"debe'lonqilganlaridaganutqlaribilanboshlamoqchimiz.

Qadrli do'stlar!Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Endi sizlar bilan kirib kelayotgan yangi – 2014-yilga qanday nom berish haqida maslahatlashib, fikrlashib olishimiz kerak.

Azal-azaldan har qaysi ota-ona o'z bolasining sog'lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo'lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o'rin egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug', eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Biz sog'lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bolani o'zimizga tasavvur etamiz.

Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab yurtimizda sog'lom ona – sog'lom bola masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani, keng ko'lamli umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz jahon miqyosida ham tan olingani sizlarga yaxshi ma'lum.

Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

Ana shularning barchasini hisobga olgan holda, har tomonlama sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarimizni izchil davom ettirish va yuksak bosqichgako'tarish maqsadida men kirib kelayotgan yangi – 2014-yilni mamlakatimizda "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilishni taklif etaman.

Qadrli yurtdoshlar!Sog'lom bolaning dunyoga kelishi, baquvvat bo'lib o'sib-ulg'ayishi ko'pgina talab va omillarga bog'liq ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz. Lekin ular orasida shunday o'ta muhim, hal qiluvchi mezonlar borki, bu haqida alohida to'xtalishni o'rinli, deb bilaman.Birinchidan, sog'lom bola – avvalo sog'lom va ahil oilaning mevasidir.

Biz oilani hayot davomiyligini ta'minlaydigan, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odamiylik, mehr-oqibat, o'z Vataniga, xalqiga sadoqatli bo'lish kabi olijanob fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi.

Tabiiyki, sog'lom bolaning tug'ilishi birinchi navbatda onaning sog'ligiga bog'liq. Bo'lg'usi ona ilohiy ne'mat bo'lmish dilbandini to'qqiz oy mobaynida o'z bag'rida asrab-avaylab, yorug' dunyoga keltiradi. Ana shu jarayonda ayol qanday kunlarni, qanday ruhiy holatni boshidan kechirsa, bu albatta ona vujudi orqali homilaga ta'sir o'tkazadi.

Ayolni qadrlash, og'ir ishlardan xalos etish, turli kasalliklardan himoya qilish – er kishining, butun jamiyatimizning burchidir. Bu haqiqat quruq gapga aylanib qolmasligi uchun barchamiz javobgarlikni sezishimiz, uni amaliy ishlarimizda namoyon qilishimiz darkor.

Bundan xulosa shuki, "Sog'lom bola yili" davlat dasturini ishlab chiqishda birinchi navbatda onalik va bolalikni himoya qilish, oilalarda sog'lom muhitni kuchaytirish, ularning iqtisodiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash kabi masalalar e'tiborimiz markaziga qo'yilishi zarur.

Ikkinchidan, sog'lom bolani voyaga yetkazishda sog'liqni saqlash tizimining o'rni va ta'siri, shu bilan birga, mas'uliyati katta ekani hammamizga yaxshi ayon.

Dasturda onalar va bolalar salomatligini asrashga xizmat qiladigan tibbiyot muassasalari – bu skrining va perinatal markazlari bo'ladimi, ayollar tibbiy konsultatsiyalari, tug'ruqxona komplekslari bo'ladimi, ginekologiya va patronaj xizmatlari, qishloq vrachlik punktlari bo'ladimi – ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy asbob-uskunalar, malakali kadrlar bilan ta'minlash borasidagi ishlarimizni kuchaytirish o'z ifodasini topishi kerak.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalarini inobatga olgan holda, homilador ayollar va go'daklarning o'z vaqtida va sifatli ovqatlanishi, ular uchun maxsus polivitaminlar, zarur mikroelementlar bilan boyitilgan mahsulotlar ishlab chiqarish, bolalarni doimiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish, turli kasalliklardan asrab-avaylash kabi tadbirlarning samarasini yanada oshirish lozim.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, sogʻlom farzandni tarbiyalashda aholi, ayniqsa, ota-onalarning tibbiy madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli dasturni shakllantirishda tibbiy madaniyatni oshirishga qaratilgan keng koʻlamli tushuntirish ishlariga alohida oʻrin berish ayni muddao boʻladi.

Maʼlumki, mamlakatimizda boʻlgʻusi kelin-kuyovlarni nikohdan oldin tibbiy koʻrikdan oʻtkazish tartibi joriy etilgan boʻlib, bundan koʻzlangan asosiy maqsad sogʻlom oila qurish, sogʻlom bolani dunyoga keltirish bilan bogʻliq. Lekin, afsuski, insonning hayoti, tugʻilajak farzandning taqdiriga bevosita daxldor bu masalaga baʼzan masʼuliyatsizlik bilan qarash, soxta va yuzaki xulosalar chiqarish, tibbiy maʼlumotnomalarni sotib olish kabi holatlar uchrab turishi barchamizni tashvishga solishi zarur. Ayni shu masalalar uchun, umuman, bolalarning sogʻlom, benuqson boʻlib tugʻilishi uchun tibbiyot xodimlarining masʼuliyatini, kerak boʻlsa, javobgarligini oshirish vaqti keldi, deb oʻylayman.

Uchinchidan, sogʻlom bolani voyaga yetkazishda taʼlim-tarbiya va sportning oʻrni va taʼsirini yanada kuchaytirish lozim.

Dasturda maktabgacha taʼlim muassasalari tizimini kengaytirish, ularni zamonaviy jihozlash, yuqori malakali pedagog va murabbiylar bilan taʼminlash, bolalarni maktabga tayyorlashning sifatini oshirish masalalariga alohida eʼtibor qaratish darkor.

Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr – bu boshlangʻich sinf davridir. Hammamiz bilamizki, sobiq tuzum sharoitida bu masalaga, afsuski, yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Quyi sinflarda dars berish asosan oʻrta maxsus maʼlumotga ega boʻlgan muallimlarga topshirib qoʻyilgan edi.

Boshlangʻich taʼlimning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bunday nomaqbul holatga butunlay barham berildi va bu vazifani bugungi kunda oliy maʼlumotli, yuksak professional mahoratga ega boʻlgan pedagog kadrlar bajarmoqda.

Qabul qilinadigan dasturda boshlangʻich taʼlimning sifatini oshirish, taʼlim standartlari, oʻquv dasturlari, darslik va qoʻllanmalarni takomillashtirish, ilgʻor

pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari o'z ifodasini topishi kerak.

Ayni paytda, "Sog'lom bola yili"ning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, farzandlarimizda, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha aniq tadbirlarni belgilab, amalga oshirishimiz lozim.

To'rtinchidan, hammamizga ayonki, farzandlarimizni, yangi avlodni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish, bu maqsadga erishish, hech shubhasiz, davlatimiz, jamiyatimizning e'tibor markazida turishi, olib borayotgan siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi shart.

Shu maqsadda bu masalaga daxldor va mutasaddi bo'lgan qaysi soha, qaysi jarayonni olmaylik, ularning barchasini rivojlantirish, yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarishda davlatning roli katta ekani hech kimga sir emas.

Shuni hisobga olgan holda, "Sog'lom bola yili" dasturi tarkibida avvalo yillik rejalarni belgilab olib, turli soha va tarmoqlar, ayniqsa, ijtimoiy sohalarga taalluqli masalalarni yechish uchun ajratiladigan mablag' bo'ladimi, bugungi kunda zamonning o'zi talab qilayotgan sharoitlarni tug'dirib berish bo'ladimi – bularning barchasiga e'tiborni yanada kuchaytirishimiz zarurligi o'z-o'zidan ravshan, albatta.

Shu bilan birga, bu masala bo'yicha jahon miqyosidagi ilg'or, taraqqiy topgan davlatlarning tajribasini o'rganish va yurtimizda joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, sog'lom bola tarbiyasida mahalla va ijtimoiy tuzilmalarning katta o'rni va ta'siri borligi haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q. Xalqimizning "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan maqolida, albatta, chuqur ma'no mujassam.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mahalla oqsoqollari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar, mahalla posbonlarining jamiyatimiz hayotida tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat va

hamjihatlik, hushyorlik va ogohlik muhitini mustahkamlashdagi mas'uliyati yanada ortadi.

Ayniqsa, qiz bolalarni tarbiyalash, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashiga yordam berish, erta nikohlarning, oilaviy nizolarning oldini olish, urf-odat va marosimlarni ixcham va tartibli o'tkazish kabi vazifalarni hal qilishda biz ko'pni ko'rgan, tajribali mahalla faollariga tayanamiz.

O'g'il-qizlarimizni turli to'garaklarga jalb etish, kam ta'minlangan oilalarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, o'z hududida tadbirkorlikni rivojlantirish va yana boshqa masalalar bo'yicha mahalla faoliyatini kuchaytirish, ularga yangi vakolat va imkoniyatlar berish lozim.

O'z-o'zidan ravshanki, yuqorida bayon etilgan barcha ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun mavjud normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish talab etiladi.

Qadrli va muhtaram vatandoshlar!“Sog'lom bola yili”ning asosiy maqsad va vazifalari haqida gapirar ekanmiz, xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan “Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur, qudratli elning farzandlari sog'lom bo'lur” degan hikmatli iborani yana bir bor esga olishimiz o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman.

Bizning mana shu qisqa – yigirma ikki yillik yangi tariximizda mustaqillikka erishish, milliy davlatchiligimiz, ertangi kunimizni qurishda, yurtimizni turli balo-qazolardan asrashda, O'zbekistonimizning rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi, jahon maydonida munosib obro' topishida eng asosiy omillar nima deb so'rasa, men, boshqa mezonlarni inkor etmagan holda, bir fikrni alohida ta'kidlab aytgan bo'lardim: bu yo'ldagi eng muhim omil – bu ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmasdan, boshini baland ko'tarib yashaydigan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, xalqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga qodir bo'lgan barkamol avlodimiz, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Ana shu haqiqatni el-yurtimiz chuqur anglab, yuragidan, qalbidan o'tkazib, keng qo'llab-quvvatlayotgani bugungi kunda o'z hosili va natijasini berayotgani va

buni butun dunyo tan olayotgani, bizga havas bilan qarayotgani hech kimga sir emas.

Biz tayanchimiz va suyanchimiz, g'ururimiz va iftixorimiz bo'lmish bolalarimizga, farzandlarimizga ishonch bilan, hurmat-e'tibor bilan qarashni kelajagimizga bo'lgan ishonch, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat-ehtirom ifodasi deb bilamiz.

Men ishonaman – bugun sizlar bilan birga belgilab olgan, “Sog'lom bola yili” dasturi degan nom bilan amalga oshiradigan barcha reja va vazifalarimiz ham ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi.

Bolaning psixik rivojlanishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarga, xususan undagi o'zlikni anglash, o'ziga-o'zi beradigan baholar hamda munosabatlarning xarakteriga bog'liqdir. Bu, avvalo, inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogeneznining dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan, ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, ota-ona va farzandlar o'rtasida o'rnatiladigan munosabatlarning tabiati katta rol o'ynaydi. Oila ijtimoiy guruhlarining eng kichigi bo'lib, bolada o'zi va o'zgalar to'g'risida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarning dastlabki muhiti sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga molik maskanidir, davlatimiz rahbari I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi navbatda oila bag'rida shakllanadi. Bola xarakterining, tabiatining va dunyo qarashlarini belgilaydigan ma'naviy me'zon va qarashlar yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.”¹

Mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekistonda ko'plab yangi sohalar qatori aholiga psixologik maslahatlar berish hamda oilaviy psixoterapiya sohasini rivojlantirishga xizmat qiladigan tatqiqotlarga bo'lgan muayyan ehtiyoj tobora sezilmoqda. Zero, bunday xizmatlarga ehtiyoj bir tomondan oilaviy munosabatlarni

¹Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T: Ma'naviyat, 2008-yil 52-bob.

muvofiglashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, shu maskanda tarbiyalanayotgan bolalarning psixologik rivojlanishiga ota-onalar tomonidan ko'rsatiladigan e'tiborning samarasini belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan boladagi jamiyatda, insoniy munosabatlar tizimida munosib maqomga ega bo'lishni ta'minlaydigan eng dastlabki ijtimoiy tasavvurlar hamda o'zi va o'zgalar to'g'risidagi tushunchalarning shakllanishga oiladagi ma'naviy-ruhiy munosabatlarning rolini aniq empirik ma'lumotlar bilan asoslashga bo'lgan davrning ehtiyojidan kelib chiqadi.

Ko'plab psixologik tadqiqotlarda oila, bola shaxsining shakllanishi va uning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanadi. Lekin bolaning o'zi to'g'risidagi barcha tasavvurlari shakllanishida u tarbiyalanayotgan oiladagi munosabatlarning xususiyatlari, oila tiplari va ota-onalik maqomlari ular tomonidan qay darajada anglanishining bevosita roli alohida tadqiqot doirasida O'zbekiston sharoitida o'rganilmagan. Bu masala amaliy ahamiyatga molik bo'lib "...inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 % ini besh yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan"². Demak, shu informatsiyalar orasida bola o'z "Meni"ni to'g'ri shakllantiradigan va shu orqali uni ijtimoiy psixologik munosabatlarga ruhan tayyorlaydigan ma'lumotlarning manbai va ta'sir kuchini o'rganish yosh ota-onalar va oilashunoslar uchun ota dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda jahon psixologik ilmida ham bola xulq-atvori va ruhiyatining shakllanishida oila va ota-ona muhim rol o'ynaydi degan yondashuv yetakchilik qiladi. Boshqa tomondan, bolaning rivojlanayotgan shaxs sifatidagi faolligi ham oiladagi o'zaro munosabatlar xususiyatini belgilab beradi. Oilada bola shaxsi rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri bu undagi "Men" konsepsiyasining shakllanishi bo'lib, bir qarashda bu kognitiv sof kognitiv holat bo'lsa-da, uning manbasi va shakllantiruvchi omillar oila muhiti va undagi o'zaro munosabatlarning xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik va nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy ishida mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida

²Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T: Ma'naviyat, 2008-yil 53-bob.

oilaning ma'naviy jihatdan tarbiyalovchi rolini oshirish, unig ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan fikrlari, tavsiyalari va xulosalari metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari L.S.Vigotskiyning shaxs konkret ijtimoiy-madaniy sharoitlarda shakllanishini, tarixiy-madaniy vaziyatlarning rolini asoslovchi nazariyasi; A.N.Leontyevning bola rivojlanishining har bir bosqichida uning ruhiy hayotidagi o'zgarishlar o'rtasida ichki bog'lanishlar mavjudligi haqidagi konsepsiyasi xizmat qiladi. Bundan tashqari, psixologlari M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, Sh.R.Baratov, Z.T.Nishonova va boshqalarning shaxs ijtimoiylashuvi va bunda oilaviy ijtimoiylashuvining o'rniga bag'ishlangan tatqiqotlarning konseptual xulosalari, shuningdek, bitiruv malakaviy ishida bola ongida "Men" tushunchasining ijtimoiy tasavvurlari konsepsiyasidagi nazariy qoidalariga bog'liq tomonlari ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan metodologik manba sifatida foydalanildi. Biz ishimizda professor V.M.Karimovanning "Dastlabki muloqot va mehrli munosabat – shaxs shakllanishining asosiy omili" degan konseptual fikridan tayanch metodologik asos sifatida foydalandik.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi zamon psixologiyasida ilk bolalik va maktabgacha yoshdagi psixik taraqqiyot davri bola o'zligini anglash va "Men" konsepsiyasi shakllanishining muhim bosqichlaridan biri sifatida qaraladi. (B.G.Ananyev, L.S.Vigotskiy, M.I.Lisina, V.S.Muxina, K.Rojers, Z.Freyd, K.Xorni, E.Erekson va boshqalar). Biroq bola "Men" konsepsiyasining mazmun-mohiyati, uning ayrim unsurlari, ularning o'zaro nisbati va antogenizning turli bosqichlarida namoyon bo'lishining mohiyati shuningdek ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi oiladagi munosabatlari ota-ona bilan bola o'rtasidagi munosabatlarga ota va onaning o'zaro munosabatlariga bog'liq o'rganishni hozirgi zamon psixologiyasining muhim va dolzarb, nazariy va amaliy muammosi, deb hisoblaymiz.

Ishning maqsadi.Ilk bolalik va maktabgacha yoshdavridagi bolalarning o'zini-o'zi anglashi mazmuniga ta'sir ko'rsatuvchi oilaviy munosabatlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish.

Ishning empirik vazifalari.Maktabgacha yoshdavridagi bolalarda o'zini-o'zi anglashning psixologikxususiyatlari va "Men" konsepsiyasining shakllanganlik darajasini aniqlash. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zini-o'zi anglashiga taalluqli bo'lgan asosiy psixologik komponentlarni aniqlash.

Ishning ilmiy farazi.Taxminimizcha, maktabgacha yoshdagi bola "Men" konsepsiyasining asosiy kongnitiv mazmunida uning muhim tarkibiy qismlari o'zlikni anglash bilan belgilanadigan komponenti yetakchi rol o'ynaydiki, bu jihat oiladagi ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xarakteridan kelib chiqishi ehtimol.

Ish obyekti.Bitiruvmalakaviy ishining obyekti bo'lib, to'liq yosh oilaning vakillari bo'lmish 15 nafar ona va 15 nafar ota hamda ularning 15 nafar maktabgacha yoshli farzandlari xizmat qildi,ishda jami 45 kishi qatnashdi.

Ishning predmeti.Maktabgacha yoshdagi bola "Men" konsepsiyasi turli jihatlarining rivojlanish darajasi va oiladagi munosabatlar xususiyatlarining o'zaro aloqasi hisoblanadi.

Ishning metodlari:

1. O'zini-o'zi va oila a'zolarini baholash usuli sifatida D.Rubinshteyn tomonidan taklif etilgan shkalali usul.

2. Maktabgacha yoshdagi bola o'zini-o'zi baholashning shakllanishi xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan V.G.Shurning "Zinachalar" proyektiv metodikasi.

3. Bolaning o'zi to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlashga mo'ljallangan "Kel, tanishamiz" va "Sen kimsan?" so'rovnomasi:

Ish natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.Amaliy jihatdan olib qaranganda tadqiqot materiallaridan oliy o'quv yurtlarida, milliytarbiya, davlat mustaqilligini mustahkamlashda oilalarning roli va boshqa bir qator mavzulari bo'yicha mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin. Shuningdek, turli

davlat va jamoatchilik tashkilotlari tadqiqotlari materiallaridan yoshlarni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularda milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini va mustaqil tafakkur tarzini shakllantirishda foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati yana shundan iboratki, unda ota-onaning o'zlikni anglash subyektlari sifatidagi rollari, ularning oiladagi o'zaro munosabatlari xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bola "Men" konsepsiyasining rivojlanishidagi ahamiyati aniqlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun "Men" konsepsiyasi tuzilishini diagnostika qilishning psixosemantik va proyektivmetodikalarini qo'llash mumkin ekanligi g'oyasi asoslangan ishning natijalaridan oilaviy psixoterapiya va konsultatsiyada, oiladagi shaxslararo munosabatlarni diagnostika va korreksiya qilish maqsadida bola dizontogenezini psixologik profilaktika qilishda foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi: bitiruv malakaviy ishi kirish, 2ta bo'lim 5ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. “Men” konsepsiyasini rivojlanish jarayoni

1.1. “Men” konsepsiyasi kelib chiqish tarixi va uning rivojlanishi

“Men” konsepsiyasi (inglizcha self-concept) – insonning o'zi haqidagi tasavvurlarining rivojlanib boruvchi tizimi, uning tarkibiga: a) o'zining jismoniy, intellektual, xarakterologik, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarini idrok qilish; b) o'z-o'ziga baho berish; v) shaxsiyatga tasir o'tkazuvchi tashqi omillarni subyektiv idrok etishkiradi. “Men” konsepsiyasi tushunchasi 1950- yillarda fenomenologik, gumanistik psixologiya yo'nalishlari ichida paydo bo'lgan. (A.Maslou, K.Rodgers), bixeviorist va freydistlarga ko'ra, insonning “Men”i uning axloq va rivojlanishning asosiy omili sifatida umumiy ko'rib chiqishiga intilishgan. “Men” konsepsiyasi shakllanishiga simvolik interaksionizm (Ch.Kuli, D.Mid) va identifikatsiyalash konsepsiyasi (E.Erikson) muhim ta'sir ko'rsatgan. Biroq birinchi nazariy ishlanmalar shu yo'lda U.Djeyms tomonidan olib borilgan. U birinchi bo'lib, shaxsning global “Men” ni (Self) o'zaro bog'langan “Men-yaratuvchi” (I) va “Men-obyekt”ga (Me) bo'lgan.

“Men” konsepsiyasini ko'pincha yo'naltirilgan tushunchalar sifatida aniqlanadi, uning ichida uchta tarkibiy qisimlarni ajratadi;

1) Kongnitiv qism – “Men” qiyofam (ingl. Self-image), o'z ichiga shaxsning o'zi haqida taassurotni qamrab oladi;

2) Emotsional-qadriyatlar (affektiv) – o'ziga shaxs sifatida, o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati. Bu tarkibiy qism, boshqacha aytganda, o'z-o'ziga baho berish tizimini ichiga o'zini baholash tizimi (angl. self-esteem) kiradi;

3) Axloqiy fe'l-atvor qism, bu kognitiv va baholash qismlarining fe'l-atvorida namoyon bo'lishini xarakterlaydi. Masalan: nutqda, o'zi haqidagi fikrlarda o'zini anglab ko'rsatadi.

“Men” konsepsiyasi – bir butun hosila va uning barcha tarkibiy qismlari mustaqil mantiqiga ega bo'lsa ham, o'zaro chambarchas bog'liqdir. Bu konsepsiya seziladigan va sezilmaydigan jihatlardan iborat va o'zi haqida taqdimotlari, ularning murakkabligi va xilma-xilligi, shaxs uchun ularning subyektiv

ahamiyati, shuningdek, ichki yaxlitli va izchillik, uyg'unlik, vaqtga bardoshliligi nuqtaiy nazardan ta'riflanadi.

Adabiyotlarda "Men" konsepsiyasini yagona tafsifi haligacha mavjud emas. Masalan, R. Berne "Men" konsepsiyasini ierarxiyaga asoslangan tuzilma ko'rinishida taqdim etadi. Uning cho'qqisi global "Men" konsepsiyasi shaxsning o'zi haqida tushunchalarini kiritadi. Bu tushunchalar har xil turlariga xos:

1. Real "Men" ("Men kimman");
2. Ideal "Men" ("Meni kim bo'lishni istayman - intilaman).
3. Oynali "Men" ("Meni qanday baholashadi).

Bularning har bir turi bir qator jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi- jismoniy "Men", ijtimoiy "Men", aqliy "Men", emotsional "Men" bo'ladi, shaxsning rivojlanishi nufuzli manba sifatida xizmat qiladi, biroq ular orasidagi jiddiy ziddiyatlar shaxsning ichki mojarolar va negativ qayg'urishlar manbasiga aylanishi mumkin.

Shaxsning faoliyatiga ko'ra - organizm, ijtimoiy individ yoki shaxs darajasida namoyon bo'lishiga qarab, "Men" konsepsiyasining uchta bosqichi ajratiladi:

- 1) "organizm-muhit" darajasi - jismoniy "Men" obraz, (tana sxemasi) organizmning jismoniy samaradorlikga bo'lgan ehtiyoji;
- 2) "ijtimoiy individ" darajasida – ijtimoiy o'zlikni, jins, yosh, etnik fuqarolik, ijtimoiy rol bular shaxsning jamiyga a'zo bo'lishi ehtiyoji bilan bog'langan.
- 3) "Shaxs" darajasida - "Men"ning farqlanuvchi obrazi, o'zi haqidagi fikrlarni aniqlash ehtiyojini ta'minlaydigan, boshqa shaxslar bilan solishtirganda o'zi haqida ta'riflovchi fikrlarini va o'zining noyoblik hissini beruvchi, o'zini ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojni ta'minlovchi daraja.

Oxirgi ikki bosqich "Men" konsepsiyasini ikki tarkibiy qismi sifatida ham ta'riflanadi. (V.V.Stolin): 1) "Qo'shiladigan", individni boshqa shaxslar bilan birlashishni ta'minlaydi; 2) "farqlovchi", uning boshqalardan ajralib turishga yordam beradi va o'zining shaxsiy noyoblik hissi uchun zamin yaratadi. Shu bilan birga, dinamik "Men" (Men o'z fikrimcha, qanday o'zgaryapman, qanday

bo'lishga intilayapma), tashqi "Men" ("men – niqob", "men o'zimni boshqalarga qanday ko'rsataman"), fantastik "Men" ("Men"ning xronologik uchtaligi – "Men o'tmish", "Men bugun", "Men kelajak"). "Men" konsepsiyasining eng muhim vazifasi – shaxsning ichki xususiyatlari o'zaro ta'minlash va yo'lga qo'yish. "Men" konsepsiyasi shaxsning hayotiy tajribasi shakllanadi, avvalo ota-ona va bola munosabati. Biroq u bolalik davridan boshlab aktiv faoliyat ko'rsatadi. Ushbu tajribani to'g'ri o'rganishga, shaxs o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga, kutilayotgan natijalar tizimi, ularning baholanishiga va shu bilan birga shaxsning rivojlanishiga, uning faoliyatiga va axloqiga ta'sir ko'rsatadi. "Men" konsepsiyasi va o'zini-o'zi anglash o'rtasida o'zaro nisbati haligacha aniqlanmagan. Ko'p jihatlarida ular ma'nodosh (sinonim) sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, "Men" konsepsiyasini o'zini anglash jarayonining natijasi sifatida qarashlar ham mavjud. (A.M.Prixojan)

"Men" konsepsiyasi – bu insonning o'zi haqida umumlashtirilgan tasavvuri, shaxsning o'ziga nisbatan tartib tizimi, yoki psixologlar aytgandek, "Men" konsepsiyasi o'zi haqidagi nazariyasi. Qayd etib o'tish muhimki, "Men" konsepsiyasi statik emas, balki dinamik psixologik hodisasidir. "Men" konsepsiyasining shakllanishi, rivojlanishi va o'zgarishi ichki va tashqi tartib omillari bilan bog'liq. Ijtimoiy muhit oila, maktab hisoblanib, "Men" konsepsiyasining ijtimoiylashuv jarayonida shakllanishiga ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir nafaqat shaxsning ijtimoiylashuvining boshlang'ich bosqichida, balki oila bolaning yagona yoki mutlaq kuchli ijtimoiy muhiti bo'lgan paytida, shu bilan birga keyinchalik ham uning hayotida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Yosh o'tishi bilan "Men" konsepsiyasining rivojlanishida ijtimoiy tajribaning, shaxs kirgan ko'p sonli formal va noformal guruhlarining ahamiyati kuchayib boradi. "Men" konsepsiyasining rivojlanishiga juda kuchli ta'sir o'tkazadi. Maktabda va noformal guruhlaridagi o'zaro aloqalarning ahamiyati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin, shu bilan birga, oila shaxsning ijtimoiylashuv instituti sifatida o'smirlik va o'spirinlik davrida ham muhim rol o'ynashda davom etadi.

Eng umumiy ko'rinishda psixologiyada "Men" konsepsiyasining ikki shaklini ajratib ko'rsatish qabul qilingan – real va ideal. Lekin uning xususiy

ko'rinishlari ham namoyon bo'lishi mumkin, masalan, shaxsning kasbiy "Men" konsepsiyasi, yoki kasbiy "Men". O'z navbatida, kasbiy "Men" konsepsiyasi ham real va ideal bo'lishi mumkin.

"Real" tushunchasi zinhor bu konsepsiyaning haqiqatdan realligini nazarda tutmaydi. Bu yerda eng asosiy shaxsning o'zi haqidagi tasavvuri, "Qanday bo'lsam shundayligimcha". Ideal "Men" konsepsiyasi esa (Ideal "Men") bu shaxsning o'zi haqidagi o'zi istagidagi tasavvuri (Qanday bo'lishni istayman).

Albatta, real va ideal "Men" konsepsiyalari nafaqat mos kelishi mumkin, balki ko'pchilik holatlarda keskin farqlanadi ham. Real va ideal "Men" konsepsiyalari o'rtasidagi tafovut turli salbiy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bir tomondan, real va ideal "Men" o'rtasidagi ziddiyat jiddiy ichki shaxsiy ixtilofga sabab bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, real va ideal "Men" konsepsiyasining o'zaro mos kelmasligi shaxsning o'z-o'zini takomillashtiruvi, rivojlanishiga intilish manb'asi hisoblanadi. Aytish mumkinki, ko'p narsa ushbu kelishmovchilikning darajasi, shuningdek, uning shaxs tomonidan interpretatsiya qilinishi bilan belgilanadi. Har qanday vaziyatda, real "Men" va ideal "Men" ning to'la mos kelishining kutish, ayniqsa o'smirlik va o'spirinlik yoshida, asossiz xomxayoldir. Mohiyatdan o'z-o'ziga baxo berishning ayrim metodikalari real va ideal "Men" konsepsiyalarining ko'pchilik holatlarida mos kelmasligi (statistic norma) haqidagi tushunchalar asosiga qurilgan.

Bir-biriga anchayin yaqinligiga qaramay, o'z-o'ziga baho berish va "Men" konsepsiyasining psixologik tushunchalari o'zaro farqlarga ega. "Men" konsepsiyasi insonning o'zi haqidagi tavsifiy tasavvurlaridan iborat bo'ladi. Ammo, shu bilan birga "Men" konsepsiyasining u yoki bu qismi salbiy yoki ijobiy buyruqlarga ega bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga baho berish tushunchasi, aksincha, inson o'ziga, o'z qobiliyatiga qanday baho berishi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, inson o'zining temperamentiga ko'ra sangvinik ekanligini, baland bo'yli va jigarrang ko'zli ekanligini bilish uning "Men" konsepsiyasining bir qismini tashkil etadi ammo, shu bilan birga, bu ushbu xususiyatga o'lchov me'yori sifatida baholanadi, subyekt o'zini ushbu xislatlariga ko'ra baholaydi,

o'zini boshqalar bilan qiyoslaydi. Shunisi ham muhimki, bir hil xususiyatlar turli shaxslarning o'z-o'ziga baho berish strukturasi bir inson tomonidan ijobiy planda (bu o'z-o'ziga baho berishning ko'taradi), boshqa inson tomonidan salbiy planda baholanishi mumkin (bu o'z-o'ziga nisbatan baho berishni tushiradi).

«Men» konsepsiyasining siymosi – individning o'zi haqidagi nisbatan barqaror ko'proq yoki ozroq darajada anglanilmagan, betakror deb his qilinadigan tasavvurlar tizimidirki, individ boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda harakat qilishda ana shunga asoslanadi. O'ziga o'zi baho berish shaxsning o'ziga, o'z imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o'rniga baho berishidir. O'ziga o'zi baho berish orqali shaxsning xulq-atvori to'g'rilanib, tartibga solib turiladi. Shaxsning o'ziga o'zi beradigan bahoning birmuncha oshirilib yuborilishi kutilgan baho ko'rsatkichlarining kamayishi bilan bog'liq bo'ladi. O'ziga o'zi baho berish shaxsning intilishlari darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Intilishlarning darajasi shaxs o'ziga o'zi beradigan bahoning individ o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarning qiyinchiliklari darajasida namoyon bo'ladigan kutilgan darajasidir.

Amerikalik psixolog U. Jeyms o'zining psixologik nazariyasida XX asrning boshlaridayoq shaxs «Men» siymosining eng muhim tarkibiy qismi o'zini hurmat qilishi haqiqatan ham erishgan yutuqlarining kishi da'vogarlik qilgan, mo'ljallangan narsalarga munosabati bilan belgilanishi haqida umuman to'g'ri fikr bildirgan edi. U surati individning real muvaffaqiyatlarini, maxraji esa shaxs intilishlarini ifoda etadigan formulani: muvaffaqiyat O'zinixurmat qilish intilishlarni taklif etgan edi. Ma'lumki, surati oshib, maxraji kamayganda kasr kattalashadi. Shu sababli kishi o'zini xurmat qilishini saqlab qolishi uchun ayrim hollarda eng ko'p kuch va g'ayrat sarflashi va o'zini xurmat qilishini saqlab qolishi shart bo'lib, bu ko'pincha murakkab vazifa hisoblansa, boshqa bir yo'li intilishlarining darajasini pasaytirishdan iborat. Bunda hatto eng kamtarona muvaffaqiyatlarga erishganda ham o'zini hurmat qilish hissi yo'qolmaydi.

Psixologik muhofaza faqat intilishlar darajasini pasaytirish hollaridan iborat emas. Bu psixologik qulaylikning buzilishi «Men» siymosining mavjud bo'lishiga xavf tug'diradigan his-tuyg'ularni bartaraf etish va uni mazkur holatlar uchun

maqbul va mumkin bo'lgan darajada saqlab qolish maqsadida shaxs qo'llaydigan alohida yo'naltiruvchi tizimdan iboratdir. «Psixologik muhofaza» tushunchasiga yaqin «muhofaza mexanizmlari» tushunchasini psixoanaliz maktabining yetakchisi Z.Freyd ishlab chiqqan edi. U bu tushunchani shaxsni biologik mavjudot deb hisoblaydigan mexanistik falsafa nuqtai nazaridan talqin qilgan edi. Z.Freyd kishining ongsiz instinktlari (asosan shahvoniy hirs) ongli «Menning muhofaza mexanizmlari», shaxsning «ichki senzurasini» bilan to'qnashib qoladi va buning natijasida turli o'zgarishlarga uchraydi, deb taxmin qilarkan, psixologik muhofazaning noto'g'ri talqin etilishiga yo'l qo'ygan edi. Masalan psixologik muhofazaning mexanizmlaridan biri o'z maqsadiga erishish yo'lidagi g'ovlarni bartaraf eta olmagan va frustratsiyaga tushgan paytda ro'y beradigan tajovuzkorlikdan iboratdir. Hayot uslubini ishlab chiqishda boshlang'ich nuqta odamning o'zi haqidagi tasavvurlari ekan, o'zini anglashning individual variativligini ko'rib chiqish darkor.

Insonni o'zi haqidagi tasavvurlari, g'oyalari, baholari va xulq-atvor tendensiyalari yig'indisi "Men" konsepsiyasi deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, "Men" konsepsiyasi subyektni o'zi haqidagi eng umumiy ustanofkalari tizimidir. "Men" konsepsiyasi odamni turli sohalarda muvaffaqiyatini va zaif tomonlarini belgilaydi va 3 ta rol ni bajaradi.

Birinchidan – shaxsning ichki o'zaro roziligiga erishishga turtki beradi;
Ikkinchidan – odamni tajribasini izohlaydi;

Uchinchidan – kutishni manbasi bo'ladi.

"Men" konsepsiyasi hamma shaxsiy va xarakterli jarayonlarni muvofiqlashtiruvchisi bo'lib aks etadi. "Men" konsepsiyasi o'zini kelib chiqishiga ko'ra asosan fenotipli havotirni irsiy darajasi va nerv tizimi xususiyatlari bilan mustaxkamlanadigan birlashma. Uni U.Djeyms orginal formulasi bo'yicha hisoblash mumkin. Yoshlikda o'z-o'zini baholash tashqi baholar ta'sirida shakllanadi, bu esa keyinchalik interiorizatsiyalanib o'ziga nisbatan munosabatga aylanadi.

O'z-o'zini baholash shaxsning markaziy tushunchalariga, ularning mag'ziga taalluqli. U ko'p jihatdan shaxsning ijtimoiy moslashuvini belgilaydi, fe'l-atvor va faoliyat regulatori hisoblanadi. Albatta, shuni ham unitmaslik kerak, o'z-o'ziga baho berish avvalo-boshdan shaxsga xos obyektiv tushuncha emas. O'z-o'ziga baho berishning shakllanishi ijtimoiylashuv jarayonida, faoliyat va shaxslararo aloqalar jarayonida sodir bo'ladi. Sotsium ko'p jihatdan shaxsning o'z-o'ziga baho berishiga tasir ko'rsatadi. Insonning o'z-o'ziga munosabati insonning dunyoga bo'lgan munosabati tizimidagi eng kechki xulosa hisoblanadi. Ammo shunga qaramasdan (balki aynan shu tufaylidir), shaxsning munosabatlari strukturasi o'z-o'ziga baho berish muhim o'rin egallaydi.

O'z-o'ziga baho berish to'g'ridan to'g'ri shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasi va dezadaptatsiyasi bilan bog'liq. Voyaga yetmagan qonunbuzarlarning o'ziga-o'zi baho berish haqidagi bugungi ma'lumotlarning ziddiyatli ekanligiga qaramay, o'smirning asotsial va delinkvent fe'li va o'ziga-o'zi baho berishning o'zaro bog'liqligi haqida tasavvurlari amalda umumqabul qilingandir. Bahslar esa asosan qonunbuzarning o'z-o'ziga baho berishi qanday holatda salbiy yoki ijobiy ekanligiga borib taqaladi. Empirik tadqiqotlarga asoslangan va eng keng tarqalgan pozitsiyaga ko'ra, o'smir – delinkventlar, va yoshi katta qonunbuzarlarning ham o'ziga-o'zi baho berishi yuqoridir. Shu bilan bog'liq ravishda qayd etiladiki, shaxsning ijtimoiy dezadaptatsiyasi bilan bog'liq yuqori, noadekvat baho keng ixtilof zonasini yoritadi va ma'lum shart – sharoitlarda delinkvent fe'l-atvorning namoyon bo'lishiga olib keladi.

Shu bilan birga eksperimental ma'lumotlarga asoslangan boshqa nuqtayi nazar ham mavjud. Ushbu nuqtayi nazar tarafdorlarining fikriga qaraganda, voyaga yetmagan qonunbuzarlarning o'ziga-o'zi baho berish darajasi boshqa o'smirlarga nisbatan pasroq. Teskari natijalar olingan tadqiqotlarning ko'pchiligi esa, ushbu konsepsiya tarafdorlarining fikricha, metodik nuqtai nazardan to'g'ri emasdir. Bir qator tadqiqotlarda ko'rsatilgandek, yosh jinoyatchilarda hamda "qiyin" o'smirlar bilan shug'ullanuvchi jmoat tashkilotlari e'tiboriga tushganlarda "Men" konsepsiyasi salbiydir. Ushbu yo'nalishdagi ishlarda ko'rsatilganidek, yomon

“Men” konsepsiyasi (o’ziga ishonchning zaifligi, rad javobi eshitishdan qo’rqish, o’z-o’ziga baho berishning pasligi) shakllangach, fe’l-atvorning buzilishiga olib keladi. Bunda salbiy “Men” konsepsiyasining quydagi ta’sirlari ajratib ko’rsatiladi. (X.Remshmidt):

1. O’z-o’ziga bo’lgan hurmatning pasayishi va ko’pincha buning oqibatida ijtimoiy tanazzul, agressivlik va jinoyatchilik.

2. Qiyin vaziyatlarda konformistik reaksiyalar stimulyatsiyasi bo’lib, bunday yosh odamlar guruhlarining ta’siriga juda tez tushadi va jinoiy hatti-xarakatlarga kirishib ketadi.

3. Idrokda chuqur o’zgarishlar o’zini salbiy baholaydigan yosh insonlar yaxshi ishlar bajarayotganini bazo’r idrok etadi, chunki o’zini bunday ishlarga qodir emasdeb hisoblaydi.

Umuman olganda, qayd etib o’tish kerakki, zamonaviy psixologiyada o’smir qonunbuzarning o’ziga past yoki yuqori baho berish haqidagi ma’lumotlarda ma’lum qarama-qarshiliklar ko’zga tashlanadi. Bunday ziddiyat paydo bo’lganda, fanda boshqacha konsepsiya, tavsifiy kuchga ega va ziddiyatlarni hal qiluvchi uchinchi yondashuvni ishlab chiqishga bo’lgan ehtiyoj dolzarblashadi.

Ko’rib chiqilayotgan muammoga va hosil bo’lgan qarama-qarshilikka boshqa konseptual pozitsiyalaridan ham qarasa bo’ladi. Taxmin qilish mumkinki, o’smir qonunbuzarlarning o’z-o’ziga baho berish muammosida eng asosiy narsa yuqorilik yoki pastlik emas, balki ularning o’z bahosi sotsiumning bahosi bilan qarama-qarshiligi, tashqi bahoga (ota-onalar, pedagoglar, sinf) mos emasligidir. Bu jihatdan baho xar doim shaxsiy bahodan pastroqdir (agar u tog’ri bo’lsa ham). O’smirning delinkventlikka, asotsial fe’liga turtki mana shunda ko’rinadi. Hurmatga tan olinishga ehtiyoj shaxsining eng muhim ehtiyojlardan biri hisoblanadi. Ayrim shaxs konsepsiyalarda u asos, fundamental ehtiyojlarga kiritiladi (masalan: A.Maslouda). Bu ehtiyojning amalga oshirishining tuzilishiga umumiy adaptatsion sindrom konsepsiyasi muallifi G.Sele tomonidan muhim omil, distress sifatida qoraladi. Shu bilan bog’liq ravishda u qayd etib o’tadiki, inson tan olinishiga ehtiyojmand, u doimiy dakkilarni ko’tara olmaydi, chunki bu mehnatini

boshqa stresslarga nisbatan og'ir va mashaqqatli qilishadi. Shubhasiz, yuqorida aytilganlarning bari nafaqat o'smirlarga, balki kattalarga ham to'g'ri keladi, ammo o'smirlik yoshi bilan bog'liq o'zlik inqirozi va uning og'ir kechishini e'tiborga olsak, o'smirlarga ko'proq xos.

O'smirning shaxsiy bahosi sotsiumda asos topmagan vaziyatda, boshqalar unga doimiy past baho berganda, fundamental ehtiyojlardan biri bo'lmish hurmatga bo'lgan ehtiyoj doimiy to'sqinlikka uchrasa, shaxsiy discomfort hissi keskin kuchayadi. Shaxs doimiy ravishda o'tkir discomfort va distress holatida bo'la olmaydi, o'smir vujudga kelgan vaziyatdan chiqish yo'llarini qidiradi. Uning o'z-o'ziga bergan bahosi ijtimoiy makonda o'z tasdig'ini topishi kerak. Ushbu muammoni yechishning keng tarqalgan usullaridan biri o'smirning atrofida gilarining bahosi shaxsiy bahoga mos keladigan va xatto undan oshadigan guruhga o'tishidir. Ushbu guruhda o'smirlarni qadrlashadi (bu doimiy ravishda og'zaki va noog'zaki tasdiqlanadi), bu hurmatga bo'lgan ehtiyojning qondirilishiga, bundan kelib chiqqan xolda, qoniqishga, ushbu guruh ichidagi comfort holatiga olib keladi. Shunday qilib, o'smirning o'ziga bergan bahosi shaxsning tashqi ijtimoiy baholari makonida adekvat tayanchga ega bo'ladi. O'smir o'tgan guruh ko'pincha turli orientatsiyaga, turlicha qadriyatlarga ega bo'lishi mumkin. Afsuski, o'smir o'ziga kerakli ijtimoiy tayanchni topgan yangi noformal guruhda juda ko'p hollarda konrtnormativ qadriyatlar shkalasi ustunlik qiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, qadriyatlarining kontnormativligi o'smir-delinkventlar guruhining xarakterli jihati hisoblanadi.

Lekin tashqi va ichki baho o'rtasidagi ziddiyatni xal qilishning tasvirlangan usuli salbiy oqibatlariga olib kelmasligi ham mumkin. Bu o'smir normativqadriyatlar shkalasiga yo'naltirilgan noformal guruhga kirgan holatda ro'y beradi.

Ushbu mexanizm yoki konsepsiya nega ota-onalar vapedagoglarning o'smirni "yomon" jamoadan chiqarib olishga bo'lgan barcha urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchrashini tushintirib beradi. Mohiyatan, bunday urinishlar avvalboshdan muvaffaqiyatsizlikka mahkum, chunki ular ortida shaxs uchun salbiy

psixologik oqibat yotadi-o'smirni yana ijtimoiy tayanchdan mahrum qilishmoqchi, uni inkor qiluvchi (yoki uning o'zi inkor qiluvchi) guruhga kiritishmoqchi. Ushbu psixologik qarama-qarshilikni yechishni bitta effektiv yo'li bor. O'smirni shunchaki bitta guruhdan chiqarib olishga harakat qilmaslik kerak, balki unga ushbu asotsial guruh o'rniga boshqasini-prosotsial orentatsiyaga ega bo'lganini ko'rsatish kerak. Ushbu yangi guruh o'smirlarning shaxsiy bahosiga adekvat baho berish, va o'smir unda shaxsga nisbatan ijtimoiy baho sifatidagi adekvat ijtimoiy tayanch topishi kerakligini eslatib o'tish shart emas.

Yuqorida ko'rib chiqilgan yondoshuv nega o'smir biror asotsial guruhda juda past daraja egallasa ham, unga maxkam bog'langanligi kabi parodaksal faktlarni ham tushuntirib beradi. Bunday holatlarda, darhaqiqat, shaxsning ushbu guruhga o'tishi shaxsning bahosi o'sishiga olib kelmaydi. Lekin bunday holatda asotsial guruhga tegishlilik o'z bahosining tashqi tasdig'ini guruhga kirmagan o'smirlar hisobidan qidirishga yordam beradi. Quyidagi modelini ishlaydi: guruh ichida – "itning keying oyog'i", lekin chetdagi o'smirlar uchun "avtoritet". Ayrim variantlarda bunday qoniqishga agressiya ko'rsatish, guruhga a'zo bo'lmagan o'smirlarni kamsitish va bo'ysundirish yo'li bilan erishish mumkin.

1.2. Oilaviy munosabatlar tizimida bolaning o'zini – o'zi anglash jarayoni

Oilaviy turmush inson xayotining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Xuddi shu boisdan jamiyatning qonun qoidalarga nisbatan munosabat ham oiladagi shaxslararo turli tuman muammolarda, muloqotda, fikr almashinuvida, munozaralarda, o'z ifodasini topadi, binobarin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash oilaning naqadar mustahkam bo'lishiga, ota-ona munosabatlarida oliyjanob xarakter hislarini, bolada yuksak ma'naviy hislarni shakllantirishga bog'liqdir. Yosh avlodni oilada komil inson qilib tarbiyalashdek yuksak va mas'uliyatli vazifa ota-onaga, oiladagi kattalarga yuklatilgandir.

Oilaviy turmushda odamlarga, mexnatga narsalarga va o'z-o'ziga bo'lgan nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xarakter xususiyatlari tarkib topa boradi.

Shuning uchun oila jamiyatning boshlang'ich buguni sifatida yosh avlodning axloqi, qobiliyati, aql zakovati xulqi yurish-turishi, xatti-harakati, muloqoti, e'tiqodi, va dunyoqarashlariga yuqori darajada tarbiyaviy ta'siri ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyatsifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda «Oila» yili deb elon qilinishi, «Oila» ilmiy-amaliy markazi o'z faoliyatini boshlashi jamiyatda, yoshlar tarbiyasi borasida oilaning roli va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbir bo'ldi va ularda yurtga, Vatanga, yaqinlarga sadoqat, muhabbat hislarini tarbiyalash orqali dunyoqarashlari mazmuniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

«Men» - obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini kanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi. (Avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Men» - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon

psixologiyada **refleksiya** deb ataladi. *Uning mohiyati* - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» - obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qayergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, xayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda «mahmadona, laqmaroq» bo'lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o'rtog'ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo'l qo'ymaslik uchun «O'rtoq, shoshmayapsanmi?» deb so'rab ham qo'yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya'ni suhbatdosh o'rniga turib, o'zingizga tashlangan nazar («men unga qanday ko'rinyapman?») – refleksiyadir.

Rus tadqiqotchilarining ko'pchiligi oilada ota-onaning bolalar munosabatlariga yoki juda keng, yoki bolaning psixik rivojlanishi umumiy nuqtayi nazardan juda tor manoda yondashadilar. Masalan, ular asab buzilishlari paydo bo'lishi, ruhiy holatlarning namoyon bo'lishi, himoya mexanizmlari shakllanishiga tasiri jihatlaridan o'rganib chiqqan.

Ko'plab psixologlar fikriga ko'ra, inson shaxsidagi yetakchi sifatlarining shakllanishi va “Men” konsepsiyasi asoslarining yaratilishi aynan ontogenezning dastlabki 5-6 yilida ro'y berad. O'zini-o'zi anglash masalalariga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili bizga o'zgaruvchilarning kattagina qismi kichik ijtimoiyguruhsifatida hayot tarzini oilada aks ettiruvchilarni tashkil qiladi, deyishimizga imkon beradi. Tadqiqotchilar buni bolalarda “Men”konsepsiyasining shakllanishida ota-onalarning o'zaro munosabatlari muhim biromil ekanligi bilan bog'laydilar. Ota-onalarning bola bilan o'zaro munosabati va uning o'zini anglashi o'rtasidagi o'zaro aloqa, o'zini tartibga solish shakli sifatida, bola xulq-atvorini boshqarish usullari va ota-ona munosabatlarini namoyon etuvchi model sifatida ochib beriladi.

Ilmiy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda bolaning o'zini-o'zi anglashi interiorizatsiya usuli bo'yicha ota-ona bilan muloqotning to'rt

xil turini ajratish mumkin.

- 1) O'ziga munosabat yoki "Men" obrazini bevosita yoki bilvosita xulq-atvor orqali singdirish.
- 2) Xatti-harakat standartlari va da'volar, ijtimoiy kutishlar darajasining shakllanishi orqali bolaning o'ziga munosabati shakllanishi.
- 3) Bola xulq-atvori ustidan nazorat, bunda bola tomonidan bir vaqtning o'zida o'zini-o'zi nazorat qilish usullari va ko'rsatkichlari o'zlashtirib olinadi.
- 4) Bolaning o'zini baholashi ko'rinishini o'zgartirishga qodir bola xulqini yo'lga solmoq, bunda bolaga ota-ona tomonidan o'tkaziluvchi "Men" obrazi va o'ziga munosabatining ijobiy va salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkinligi tabiiy, albatta.

Shu tariqa, bolada shakllanuvchi "Men" ijobiy obrazi ham atrofdagilarning salbiy baholashga duch kelganda o'zgarishi mumkin, ya'ni uning barqarorligi bu bosqichda shak-shubhasiz emas va boshqalarning, birinchi navbatda, onaning munosabatiga bog'liq bo'ladi: ona esa o'z navbatida, o'ziga ijobiy munosabatda bo'lishi lozim, chunki aks xolda u bola uchun namuna bo'la olmaydi. Ona "Men"ini qo'llab-quvvatlash bola "Men"ini shakllantirishni yengillashtiradi va bolaning ona bilan munosabatlari oiladagi uchlik munosabatlari bilan almashgan xoldagi rivojlanish bosqichidagina bola qat'iy chegaralarga muhtojlik seza boshlaydi. Bu zarurat muhabbat va nafrat mojarosini ishlab chiqish va uning asosiy tendensiyalari bolaning otaga yo'nalganlikka asoslanuvchi hamda bolaning onaga yo'nalganlikka tayanuvchi tendensiyalari bilan bog'liq.

Ota-ona bolaga nisbatan haddan ziyod g'amxo'rlik (giperproteksiya) e'tibor ko'rsatilgan oilada bola "Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi", degan tasavvur mavjud bo'ladi. Bunday oilada bolalar o'zlarining borligidan, tug'ilganligidan mag'rurlanib yashaydi va shuning uchun har qanday tilak va xohish amalga oshishiga ishonadi. Odatda bunday bolaning tug'ilishini ota-ona uzoq vaqt kutgan bo'ladi va buni ular hadeb bolaga eslataveradi, shuning uchun ham bola juda egoist bo'lib ulg'ayadi.

Yuqoridagi holatning aksi, yani bolaga nisbatan e'tiborsizlik, mehrsizlik bo'lgan oilada bolaning tasavvuri quyidagicha bo'ladi: "Meni yoqtirishmaydi, lekin men o'zim harakat qilib, ularga yaqinlashishim kerak". "Men yaxshi bola emasman", degan tasavvur odatda bolada qator jiddiy salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, o'ziga bo'lgan bahoning pastligi, o'zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi, ko'p narsalardan hadiksirash, ayb ish qilib qo'yishdan cho'chish, kayfiyatning beqarorligi va shunga o'xshash.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar. Bunday kelishmovchiliklar uchun zamin bo'lib quyidagilar xizmat qiladi. Dunyoqarashlari orasidagi mavjud farqlarni hisobga olmasligi. Yoshlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etilishi. Do'stlar tanlashdagi mustaqilligi, hissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga, bugungi kuntalabiga mos kiyinishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, umr yo'ldosh tanlashda mustaqillik uchun ota-onalari bilan ba'zan kurash olib borishning xush kelmasligi. Ota-onalar ichkilikka ruju qo'yishi yoki or-nomusni yig'ishtirib qo'yib, buzuvchilik qilish. Ba'zi bolalarni mehnat qilishga o'rgatmaganlik va buning oqibatida yengil-yelpi hayot kechirishga o'rganib qolishi. Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qo'yish va hokazo. Ota-onalik psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar.

Ota-onalar va bolalar munosabatiga oid yuqoridagi kabi kamchiliklar natijasida oiladan halovat yo'qoladi, o'rtaga sovuqchilik tushadi. Farzandlik burchini bajarmaslik u yoqda tursin, hatto ichib kelib ota-onasiga qo'l ko'taradigan farzandlar, ota-onasini sharmanda qilayotgan suyuqoyoq fohishaparastlik borligi achinarli holdir.

Ota-onalarning ba'zilar bolalardagi 3,6,13,14, yoshlarda muqarrar ravishda bo'lib o'tadigan krizislarni bilishmaydi. Bu yosh bosqichlarda bola ruhiyatida yangi psixologik qo'shilmalar yuzaga keladi. Bu esa ularning kattalar jumladan ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlarda ko'zga tashlanadi. Buni sezmagan ba'zi ota-onalar "bolam nihoyatda qaysar, quloqsiz bo'lib qoladi", deb o'ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar. Bunga qarshi o'zlaricha chora tadbirlar belgilashlari

natijasida ota-ona va bola bir-birlarini tushuna olmay qoladilar. Bolaning ota-onalardan bezish xollari kuzatiladi.

Endi o'zini anglashning tarkibiy qisimlari, xususan, o'zini baholashning subyektiv psixologik holat- o'z qadrini xis qilishni ota-onalar munosabati hosilasi sifatida shakllantirish sharoitlarini ko'rib chiqish lozim. S. Kupersmit tomonidan o'zini past baholash ota-onalarning moslashuvchanlik xulq-atvori, yani moslashib olish qobiliyati tufayli erishilgan muvaffaqiyatning samarasiz bo'lib chiqishi bilan bog'liqligi, o'zini o'rtacha baholash ota-onaning iltifotlilik, chidamlilik va homiylik mavqeyi bilan izohlanadi: o'zini yuqori baholash ipidan ignasigacha batafsil ifodalangan qoidalar va o'zaro ishonch asosidagi munosabatlar bilan bog'liqligi isbotlangan. Ayniqsa, M. I .Lisinaning bu masaladagi yondashuvi yaqin bo'lib, u tarbiya xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bola o'zini-o'zi baholashining rivojlanish variantlarini tavsiflashda o'zini baholashnong shakllanishi adekvatligi bolaga ajratiluvchi vaqtning yetarli yoki yetarli emasligi, uning ota-ona tomonidan tengdoshlarga nisbatan umumiy yoki qisman baholanish darajasi, rag'batlarning bor yo'qligi, jazolarning tez-tezligiva asoslanganligi, kelajakdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarning bashorat qilinishi kabilar bilan bog'liq holda aniqlanishini ko'rsatib o'tgan. E.V.Kucherova ham umumiy o'zini baholashning boshlang'ich genetik xarakteri va uning bola rivojlanishidagi ijobiy rolini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, kattaroq bo'lib qolgan bolalarda alohida sohaga aylangan o'zini anglashning barcha elementlari "Kognitiv Men", "ekzestinsial Men" (o'ziga munosabat), "rolli Men", (tartibga solish munosabati) yaxlit bir butun shaklda namoyon bo'lib, ularda hissiyotlar bilan birga hayotiy qadriyatlar to'g'risidagi fikrlar sohasi ustunlik qiladi.Bu soha mutloq ijobiy xarakterga ega bo'lib, shaxsning o'zini anglash strukturasida alohida o'ringa ega.

Shunday qilib, biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, ilk bolalik davrlarida bolada o'zini baholash va o'zini qabul qilish umumiy darajasi balandligiga (shaxsning bazaviy strukturasida va o'zini anglashning tayanch tarkibiy qismi sifatida) mos keluvchi "Men" konsepsiyasi yoki "Men" obrazi shakllanishining eng muhim elementlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish lozim.

1) Ota-ona o'z bolasini qanday bo'lsa shundayligicha, barcha shakllanayotgan shaxsiy sifatlari doirasida qabul qilishiga yo'naltirish.

2) Ota-ona tarbiyasida axloq normalarining munosib o'rniga ega ekanligi, yani bola xulqini intizomlashtiruvchi asoslarning qat'iyligi:

3) Bolaga xos bo'lga subyektiv qabul qilish xususiyatlari bilan birga, ota-onalarning o'zini baholash darajasi yuqoriligi.

4) Ota va onaning tarbiya mezonlari va talablarida o'zaro uyg'unlikning mavjudligi kabilar.

Yosh avlod ijtimoiy turmushning barcha soxalari, xususiyatlari bilan oila quchog'ida tanishadi.

Oilaviy munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan tarkib mustaqillik, istiqbolga nisbatan sodiqlik, vatanparvarlik, qat'iylik qadr-qimmat hissi kabi yuksak insoniy hislar shakllana boshlaydi. Asta-sekin tug'ishganlargab g'amxo'rlik, aka-ukalik va opa-singillik mehri, ota-onaga muhabbat va shavqat singari teranlik tuyg'ulari namoyon bo'la boradi. Oilaviy turmushdagi samimiy va oqilona munosabatlar, ilk psixologik muhit ta'siri natijasida oila a'zolarida kamtarlik, ko'ngilchanlik, sabrlilik, yaxshilik, uyatchanlik, yumshoqlik, dilkashlik, mexribonlik, talabchanlik, mexnatsevarlik, mexnatga ma'suliyatlilik, ozodalik, izzat-nafslilik, tejab-tergashlik kabi shaxs hislatlari tarkib topadi. Agarda oilaviy turmush munosabatlari qo'pollik, andishasizlik negiziga qurilgan bo'lsa u xolda oila a'zolari ruxiy dunyosida kekkayishlik, pismiqlik, jamoatchilik ma'qullagan narsalarni va ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xatti-xarakat qoidalarini sezmaslik, yalqovlik, mas'uliyatsizlik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, dimog'dorlik kabi illatlar yuzaga keladi. Har bir oila ijtimoiy tizim stuktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi.

Oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomonda jamiyatning oilaga ta'siri, ikkinchi tomonda esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning xal qiladigan ijtimoiy funksiyalarini hisobga olish lozim. Insoniyat taraqqiyotining xozirgi bosqichida xozirgi zamon oilasining asosiy funksiyalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin. Iqtisodiy reproduktiv, tarbiyaviy

komunikativ, regulyativ, fe'liysitologik kabilar. Oilaning iqtisodiy funksiyasi eng asosiy funksiyalardan biri hisoblanadi. Oila iqtisod byudjet daromadni rejali sarflash, kundalik xarajatga zarur buyumlarga pul ajratish bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish, er-xotinning tajriba malakaga ega bo'lishlariga bog'liq. Shuningdek, oilada o'sayotgan bola ham mana shu malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib borish zrurligini unutmagan holda bolaga iqtisodiy masalalarni hal etishni o'rgatib borish lozim. Oila o'zining shu funksiyasi tufayli jamiyatga, davlatga katta foyda keltirgan. Oilaning reproduktiv funksiyasi – jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish funksiyasidir. Oila faqatgina yangi avlodni boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirish, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funksiyasi va uni bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklanishi uchun xar bir oilada nechta farzand bo'lishini nazarda tutadi.

Oilaning tarbiyaviy funksiyasi – tarbiyalash eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik, tarbiyasiga oilada asos solinadi. Mustaqillika erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz bu borada katta ahamiyatga ega. Bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug', mahallaning ham ta'siri bor. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish oilaning asosiy vazifasidir.

Ko'rib turganimizdek, ota-ona bola oldida birlamchi ijtimoiy ko'zgu vazifasini bajaradi hamda u bilan muloqotda muhabbat, hurmat va ishonch hislarini namoyon qilgan xolda shu tariqa bolaga o'zi haqida ushbu hissiyotlarga loyiq bo'lgan subyekt haqidagi tasavvurini singdiradi. Ular tomonidan tashqi nazoratning qattiqligi bolada o'zining ichki nazorat qilishni rivojlantiradi, aniq asoslangan talablar qat'iy belgilangan va mos keluvchi "Men" obrazi hamda "Men" konsepsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi. Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan xolda xulosa qilib, avvalo, M.I.Lisina, V.A.Petrovskiy, I.S.Kon, A.A.Bodalev, V.V.Stolin, I.I.Chesnokova kabi psixologlarning "Men"

konsepsiyasi tuzilishi va rivojlanish mexanizmlari haqida integrative kompleksli tuzilma va o'zini anglash jarayoni mahsuli sifatida, shuningdek, oiladagi ichki inter va intraindivid munosabatlarning "Men" konsepsiyasi ontogenezning maktabgacha yosh davrida shaxsning "Men" konsepsiyasi shakllanishi bilan o'zaro aloqasi haqidagi tasavvurlarini tahlil qilish asosida biz ishlab chiqqan konseptual sxemani keltirib o'tamiz.

U maktabgacha katta yoshdagi bolalarda shaxsning o'zini anglash jarayonining kompleksli dinamik sxemasi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) rivojlanayotgan bola shaxsining ijtimoiy borliq hamda uning vakili sifatida otalar bilan munosabatlari faolligi orqali aniqlanadi.

b) birlamchi ijtimoiy guruh, yani oilada boshqa ahamiyatli kishilar- ota va ona bilan shaxslararo muloqot faoliyati orqali bog'lanadi.

v) natija sifatida strategik qadriyatlar yo'nalishi tizimiga bog'langan to'laqonli "Men" konsepsiyasiga ega bo'ladi.

g) "Men" obrazi – o'zi haqidagi bilim va o'ziga munosabat hamda o'ziga xos soha, o'zini baholash, tasavvurlar yig'indisi shaklida tayanch tarkibiy qismga differensiyalanadi.

d) bunda o'zini anglash jarayoni sifatida refleksiya qiluvchi "Men" ga "Men" konsepsiyasi esa mahsulot sifatida refleksiya qiluvchi "Men" ga mansub hisoblanadi.

1.3. Shaxs bo'lib shakllanishda "Men" obrazi va o'z-o'zini baholash jarayonining eng muhim bosqichlari

«Men» - **obrazi** - shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obrazga aytiladi, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. Shaxsning o'zi haqidagi obrazi va o'z-o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega.

"Men" obrazining jinsiy identifikatsiya shakllanishi. Ilk bolalik davrida bola (3-4 yosh) o'zining ma'lum bir jinsga munosabati bo'lganligini tushunadi va atrofdagi odamlarning jinsini bemalol ajrata oladi. Garchi bolalar o'zining shaxsiy

jinsni tashqi belgilari orqali – kiyim, soch uzunligi bilan umumlashtiradi. Biroq o'zining jinsiy identifikatsiyalashida bolada shu yoshda murakkablik yaratadi. Bola o'zining maskulin-feminin ko'rsatkichlarini baholashi bolalar orasida jinsiy rollari noaniqligi tufayli qiyinchiliklar bo'ladi. Bu muammoni yechishida u savolga javob qidiradi: "Sen kim bo'lishni istarding? Senga kim bo'lishi ma'qul? Qiz bolami yo, o'g'il bolami?" deb savol berish va "Axloq eksperimentlar" orqali, qachon bola erkak va ayol obrazlari va rollaridan birini tanlashi kerak.

O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar bolalar bog'chasida o'ziga xos xususiyatga ega. Bolalar bog'chasi bola uchun faqatgina tashqi olamni bilish, dunyoni hissiy baholash emas, balki o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish imkoniyatini beradigan joydir. Ayniqsa o'g'il bolalar bilan qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Bog'chada bolalar jamoasi shakllanadi. Kattalar bolaga o'g'il bola va qiz bola qanday bo'lishi kerakligi haqida tushuntiradilar. Masalan, o'g'il bola yig'lasa "yig'lama, sen erkak bo'lishing kerak", "qiz bolamisan" deb, qizlarga esa "daraxtga chiqma, sen qiz bolasan" kabi iboralar bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari bolalar katta erkak va ayollar xulq - atvorlariga qarab ham o'zlarini qanday tutishni o'rganadilar. O'yin faoliyatlarida erkak va ayollarga xos xususiyatlarni namoyon qiladilar. Demak, bu davrdagi bolalarda muloqotning shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda muloqotni rivojlantirish tarbiyachilarning mahoratiga bog'liq, ya'ni mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil qilinishi muhimdir.

Ilk bolalik yoshi – bolada faol nutq shakllanishi davridir. Bir yarim yoshgacha bola 30-40 tadan 100 tagacha so'z o'zlashtiradi, ikkinchi yil oxirida bola 300 tagacha, uchinchi yil oxirida esa 1500 tagacha so'z ishlatadi.

Nutq rivojlanishi ona tilining tovush xususiyati va grammatik tuzilishini egallashni taqozo etadi. Dastlab bola nutqni so'zning umumiy ritmik-melodik (tezlik, ohang) tuzilishini ilib olish yo'li bilan qabul qilsa, ikkinchi yil oxiriga kelib u ona tilining barcha tovushlarini fonematik qabul qiladigan bo'ladi va shu asosda lug'at va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi. Faol nutqning shakllanishi bolaning butun psixik rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pchilik psixologlar tug'ilgandan voyaga yetgunga qadar insonning psixologik rivojlanish yo'lining o'rtasi 3 yosh deb hisoblashadi. Uch yoshli bola o'z-o'ziga xizmat qila oladi, atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishishni biladi. Bunda u og'zaki muloqot qilishni biladi, unda xulq-atvorning eng oddiy shakllari shakllanadi. Bola uch yoshda etarlicha faol va atrofdagilarga tushunarlidir. Uning xarakteri va temperamenti xususiyatlari allaqachon namoyon bo'la boshlaydi.

Bolalik oxirida (hayotning uchinchi yilida) yangi faoliyat turlari (rasm chizish, kuylash, haykaltaroshlik, loyihalashtirish) yuzaga kela boshlaydi.

Predmetli faoliyatda belgilangan taassurotlarning to'planishi bola nutqining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Faqat so'z ortida real dunyo obrazlari turgandagina bu so'zning o'zlashtirilishi muvaffaqiyatli kechadi. Agar bola ma'lum bir sababga ko'ra, bu yoshda nutq rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitdan mahrum bo'lsa, unda yo'qotilgan imkoniyat o'rnini to'ldirish oxir-oqibat juda murakkab bo'lib qoladi, chunki bu yosh nutq rivojiga nisbatan sezitiv (sezgir)dir: aynan mana shu paytda nutq o'zlashtirilishi ancha samarali kechadi.

Jinsiy differensial va jinsiy identifikatsiyalash psixologik nazariyalari. Uchta alternativ nazariyalar mavjud.

Identifikatsiya (aynan o'xshatish) nazariyasi psixoanalitik asosga ega, hissiyotlar va o'xshatish ro'lini ta'kidlayapti. Taxmin qilishicha, bola beixtiyor o'z jinsi vakillarining axloqini takrorlaydi.

Jinsiy tipizatsiya nazariyasi ijtimoiy o'rganish konsepsiyasiga tayanadi va jinsiy identifikatsiyasini tasdiqlash harakatlari orqali tushuntiradi; ota-ona va boshqa shaxslar o'g'il bolalarni "o'g'il bola" deb hisoblanadigan fe'l-atvor uchun rag'batlantirishadi va aksincha ular o'zlarini "qiz bola" tutganda koyishadi; qizlar esa femenin axloq uchun yaxshi so'z eshitishadi, va yomon so'z – maskulin axloq uchun salbiy tasdiq olishadi. Jinsiy tipizatsiya – bu jarayon avval bola jinsiga qarab farqlanuvchi fe'l-atvor qoidalarini bajarishga kiritadi.

Avtokategorizatsiya nazariyasi kongnitiv dunyoqarash bilan bog'liq bo'lib ushbu jarayonning bilish, o'rganish jihatlarini diqqat markaziga oladi: bola

dastavval jinsiy identifikatsiyani o'zlashtiradi, o'zini "o'g'il" yoki "qiz" sifatida aniqlaydi, keyin esa o'zining shu jinsiy tegishlikka muvofiq ravishda tutishga harakat qiladi.

Maskulin – erkak jinsiy belgilarining rivojlanishi.

Feminine – ayol jinsiy belgilarining rivojlanishi.

Jinsiy rolini afzal ko'rishi – faoliyatining va axloqini jinsiga nisbatan aniqlash.

Jinsiy o'z-o'zini aniqlash – o'zini qaysi jinsga tegishli ekanligini anglash.

Ushbu nazariy qarashlar L.A.Koxlberg keltirgan quyidagi misol orqali yaxshi tushuntirib o'tilgan. Masalan, jinsiy tipizatsiya nazaryasi nuqtayi nazardan bola "Men rag'bat xoxlayman", "Men o'g'il bola harakatlarini bajarganimda meni tan olishardi. Shuning uchun "Men o'g'il bola bo'lishni xoxlayman". O'zini kategoriyazatsiyalash nazaryasiga muvofiq. "Men o'g'il bolaman shuning uchun men "erkak" harakatlarini qilishim kerak (Kon.I.S 1981).

Demak, bolalik davri boshida bolaning birlamchi jinsiy identifikatsiyalashi paydo bo'ladi. Kiyim va boshqa tashqi belgilari o'zgarishi bilan jinsi o'zgarmaganligi haqida bola tushunadi. Biroq ilk bolalik davridagi bolalar o'z diqqatini jinsiy ayirmalarga kam yo'naltiradi, qachon ular xal qiladi, kim "o'g'il bola" yoki kim "qiz bola" (xususan bu bolalarning rasimlariga xos). Maktabgacha yosh davridagi 4 – yoshdan katta bolalar nafaqat atrofdagilar jinsini to'g'ri ajrata oladi va jinsiga qarab odamlarga turlicha talablar ham qo'yilishini bilishadi. Bu bolalarning o'z kelajagi haqidagi tasavvurlaridan o'rin olgan shaxsiy senariylarida aks etadi.

Kattalarnig ko'pchiligi bolalarning faolligini chegaralaydilar va bu bilan o'z nuqtayi nazariga binoan bolaning xafsiligini ta'minlashadi, shuningdek, tartib-intizom va muvofiqlik tushunchalarini birinchi o'ringa qo'yishadi. Agarda bola ularning talablariga qarshilik ko'rsatsa, ixtiloflar vujudga keladi va ular, E.Eriksonning fikricha bolada o'ziga o'z kuchiga ishonchsizlik, o'z mustaqilligiga ishonmaslik tuyg'ularining paydo bo'lishiga olib keladi. Mustaqillik va o'ziga

ishonmaslik alternativasi bolalik pallasini hal qiluvchi muammosi hisoblanadi. Ushbu krizis qanday xal bo'lishi shaxsning keyingi taraqqiyotida aks etadi.

Ushbu pallaning shaxsning shakllanishidagi ahamiyatini tasvirlar ekan, R.Berne ushbu yoshda bola atrofida qilarni qo'llab-quvvatlashiga va ruhiyatini ko'tarishga ayniqsa juda muxtoj bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi. Unda paydo bo'layotgan mustaqillik tuyg'usi shunchalik rag'batlantirilishi kerakki, kattalarning ma'n qilishi bilan bog'liq ixtiloflar bolaning ortiqcha uyatchanlik va o'z kuchida shubhalanishiga olib kelmasligi kerak. Bolada o'zining boshqarishning rivojlanishi unda ijobiy o'z-o'zini baholashining shakllanishiga ziyon keltirmasligi kerak.

4 yoshdan boshlab bolada u qanday inson bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvurlar paydo bo'la boshlaydi. Bolaning asosiy harakat kuchi shu yoshda energiya va intilish bilan olamni o'rganish faoliyati, va uni bosh harakat qilayotgan kuchi esa qiziquvchanlik bo'ladi. Bola endi erkinlik bilan harakat qiladi va yetarli darajada nutqi rivojlanib savol beradi va qabul qilgan javoblarni idrok qiladi.

Ota-ona bolaning o'rganish faoliyatini chegaralamasligi o'ta muhimdir, eng xaflisi, E.Eriksonga ko'ra, bolada o'zining qiziquvchanlik va faollik uchun ayibdorlik his-tuyg'ulari paydo bo'lishi mumkin. Keyinchalik bu bolada tashabbuskorlik hissini yo'qolishi chiqarishi mumkin. O'z navbatida, R.Berne bolalarda ijobiy o'z-o'zini baholashni shakllantirishga harakat qilayotgan ota-onalarga bolaning faolligiga o'z munosabatini shunday bildirishni maslahat beradi; unda o'z-o'ziga nisbatan kamsitilganlik munosabati va o'zini jazolash hissi paydo bo'lmasligi zarur.

Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan «kattalik» hissi qizlarda ham, o'smir yigitchalarda ham nafaqat o'ziga, balki o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi «Men» obrazining yaxshi va ijobiy bo'lishi ko'proq bu obrazning ayollik sifatlarini o'zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o'zida ayni paytda mavjudligiga bog'liq bo'lsa, yigitlardagi obraz ko'proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog'li uyg'un ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'smirlikda o'g'il

bolalardagi bo'yni pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdin go'zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarining bor - yo'qligiga bog'liq xolda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo'lsa-da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmashi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

«Men» - obrazi va o'z-o'ziga baho «Men» - obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholartizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq xolda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. O'z-o'ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suisidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik holat «noadekvatlik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uquvsizliklarni

sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham masalan, «halaqit berdi-da», «falonchi bo'lmaganida» kabi bahonalar ko'payadi. Ya'ni nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog'i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog'dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruh**referent** guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, hayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi.

O'z-o'ziga baho o'tayuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqto'vlar, turliqiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsganisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki taz'iy ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat

hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z-o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmdir. Demak, o'z-o'zini baholash o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi.

O'z-o'ziga baho o'z-o'zi bilan muloqot o'zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida o'z-o'zini ishonitirish o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish.

1. O'z-o'ziga buyruq berish tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati.
2. O'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya ijtimoiy normalardan kelibchiqqan xolda o'zida ma'qul ustanovkalarini shakllantirish.
3. Ichki intizom - o'z-o'zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Yuqoridagi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtai nazardan o'z-o'zi bilan amalga oshiriladigan **ichki dialog** alohida o'rin tutadi.

O'z-o'zi bilan dialog- oddiy til bilan aytganda, o'zi bilan o'zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulativ rol o'ynaydi. Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog'liq tarzda o'z-o'zi bilan muloqotga kirishib, shaxs o'zini nazorat qila oladi. Hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi

tanqidga uchrasa ham, o'ziga xolis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan hatolik uchun o'z «ich-etini yeb tashlaydi» Ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlar quyidagilar.

1. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlari.
2. O'z-o'zi bilan muloqot.
3. O'z-o'zini ishontirish.
4. O'z-o'ziga buyruq berish.

Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o'zgarishi va murakkablashishi sodir bo'lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlarni, ya'ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatlari o'zgaradi, usullar yig'ilishi va o'zgarishi sodir bo'ladi. Bola ko'p miqdordagi turli harakatlarni bajara oladi, bilim va tasavvurlari o'zgaradi. Mazkur o'zgarishlar ichidan nisbatan umumiy va belgilovchi o'zgarishlarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Bolaning shaxsiy yo'naltirilganlik xususiyatining umumiy rivojlanishi.

Unga uch turni kiritish mumkin: a) ta'limiy yo'nalganlik (yaxshi o'qish, yaxshi baho olish), b) bilim olishga yo'nalganlik (masalalarni hal etish, yangi vazifalar olish), v) atrofdagilar bilan munosabat. Shunday qilib, shaxsiy yo'nalganlikni hisobga olish maktab o'quvchilari ta'limi (bilim va usullarni egallash) va tarbiyasini (shaxsiyat rivojlanishi) yanada samarali amalga oshirish uchun birinchi va zarur shartdir.

Ong mexanizmining rivojlanishi. Bu fikriy faoliyatning ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazlidan abstrakt, nazariyga o'zgarishidir. Bolada tushunchalar va tushunchalar tizimi muntazam shakllanib boradi. Bolaning anglash va fikrlashining rivojlanishi darajasi qancha yuqori bo'lsa, u o'zlashtirgan, foydalanayotgan tushunchalar shuncha murakkab bo'ladi.

Bolalik avvalida bola atrofidagi predmetlar xususiyatini, predmetlar orasidagi eng oddiy aloqalarni ilg'aydi va ulardan foydalana boshlaydi. Bu

predmetli faoliyat, oddiy elementar o'yin shakllari, rasm chizish, nutqni egallash bilan bog'liq ravishda ro'y beruvchi keyingi aqliy rivojlanish uchun asos bo'ladi. Bolalikda aqliy rivojlanish asosini bolada shakllanayotgan idrok etish va fikrlash harakatlarining yangi turlari tashkil etadi. Bu yoshda avtodidaktik, o'zi o'rgatuvchi o'yinchoqlar (matryoshkalar, qutichalar, kubchalar, mozaika va boshqalar) bolani tez rivojlantiradi.

Ko'rish bilan birga bolalikda eshitish orqali qabul qilish ham rivojlanadi. Ayniqsa fonematik eshitish jadal rivojlanadi. Odatda, ikkinchi yil so'ngida bolalar ona tilining barcha tovushlarini qabul qiladi. Biroq fonematik eshitishning mukammallashishi keyingi yillarda ham ro'y beradi.

Fikrlash rivoji uchun vositali harakatlar juda muhim. Vosita bolaning predmet dunyosiga ta'sir qilishiga xizmat qiladi. Bola eng katta tajribani kattalar bilan nutqiy muloqot natijasida qabul qiladi.

Hayotning uchinchi yilida bola aqliy rivojlanishida muhim siljish sodir bo'ladi – ongning **belgili** (yoki ramziy) funksiyasi shakllana boshlaydi. U bir obyekt o'rnini bosuvchi sifatida boshqa bir obyektidan foydalanish imkoniyatidan iborat. Bunda predmetlar bilan emas, balki ularning o'rnini bosuvchilar bilan harakat amalga oshiriladi.

Turli belgilar va ularning tizimidan foydalanish – inson psixikasining o'ziga xos eng xarakterli xususiyati. Belgilarning har qanday turi (til, matematika ramzlari, surat va musiqada mohirona ifodalangan dunyo va h.k.) odamlar orasidagi muloqot uchun xizmat qiladi, predmet hamda hodisalar vazifasini bajaradi va anglatadi. Erta yoshda belgili funktsiya dastlab amaliy faoliyat bilan bog'liq ravishda rivojlanadi va faqat keyinchalik so'zlardan foydalanishga o'tiladi.

Bola va katta yoshdagi odam. Ontogeneza kattalar bilan muloqot bolalarda birdaniga paydo bo'ladi, ancha keyin esa bolaning tengdoshlari bilan munosabat o'rnatiladi. Dastlab bola butunlay kattalarga bog'liq bo'ladi. Tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar ko'p jihatdan kattalarning bola bilan o'zaro munosabati xususiyatiga bog'liq. Kattalarga ergashib bolalar o'zini ismi bilan atay boshlaydilar. Ikkinchi yil oxiriga kelib o'zini ismi bilan chaqirish «men» kishilik

olmoshi bilan almashinadi. «Men» tizimi – erta bolalikda (L.I Bojovich) paydo bo‘luvchi markaziy hodisadir. Bola o‘zini kattalardan ajratishni o‘rganadi, o‘ziga nisbatan mustaqil «men» sifatida munosabatda bo‘la boshlaydi, ya’ni unda o‘zini anglashning boshlang‘ich shakli paydo bo‘ladi.

Rivojlanishdagi muvaffaqiyatlar bola xulq-atvorini o‘ziga xos tarzda o‘zgartiradi. Kattalar avvalgidek yetakchi o‘rin tutsa-da, bola o‘z amaliy hayotining tor muhiti va u qadar katta bo‘lmagan imkoniyatlari doirasida kattalar yordamisiz harakat qilishga intiladi. Yangi tendensiyalar bola faolligini («men o‘zim») kuchaytiradi va kattalar bilan yangi munosabatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu davr tanqidiy davr («uch yosh krizisi») deb ataladi, ya’ni kattalar bolalar bilan munosabatda yangi qiyinchiliklarga duch kela boshlaydilar. Bunda bola o‘zining negativizmi va qaysarligi bilan bardosh berib bo‘lmas darajaga etishi mumkin.

Uch yosh krizisi o‘tkinchi hodisa, lekin uning natijasi – boshqalardan o‘zini ajrata bilish, boshqa odamlar bilan o‘zini taqqoslash bolaning psixik rivojlanishida muhim qadamdir. Kattalarday bo‘lishga intilish faqat o‘yin shaklidagina nisbatan to‘liq yechimini topishi mumkin (faqat o‘yinda bola do‘konga borishi, tushlik tayyorlashi, raketada kosmosga ucha olishi mumkin). Shuning uchun ham uch yosh krizisi bolaning o‘yin faoliyatiga o‘tishi bilan hal etiladi. Lekin bu krizis bola shaxsining ma’lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila olmayotganligini anglash natijasi hisoblanadi. Krizis davrida yuzaga keladigan xususiyatlar iroda, layoqat va boshqa xususiyatlar uni shaxs bo‘lib shakllanishiga tayyorlaydi. O‘z-o‘zini anglash layoqati sekin – astalik bilan rivojlanib, avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan “Men kichkina paytimda qanday bo‘lgan edim?”, “Men katta bo‘lganimda kim bo‘laman?” singari savollarda ko‘rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlarga ega bo‘lishga harakat qiladilar.

Bolada tengdoshlari bilan ma’lum bir munosabatlarning yuzaga kelishi, «bolalar jamiyati»ning shakllanishi maktabgacha yoshning muhim xususiyati

bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, ikkinchi signal sistemasi jadal rivojlanib, sensor idrok, ayniqsa, ko'rish va eshitish orqali qabul qilish sezilarli rivojlanadi. Bolada oddiy majburiyatlar majmui paydo bo'ladi, ongli ravishda rasm chizadi va musiqiy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi. U unga qanday surat yoki musiqa yoqishini, qaysilari yoqmasligini aytishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolaning boshqa odamlarga ichki pozitsiyasi o'z «men»i va o'z harakatlari ahamiyatini tobora anglab borishi, kattalar dunyosiga, ularning faoliyati va o'zaro munosabatiga katta qiziqishi bilan xarakterlanadi.

Bob yuzasidan xulosa

Shaxsiy va ijtimoiy tayyorgarlik Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psihologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Maktabga o'qish uchunkelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turlitalablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim. Katta bog'chayoshdagi bolalar asosan maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyojmotivi turlicha bo'lishi mumkin. "Menga chiroyli forma va daftar, qalam, ruchkalar sotib olibberishadi", "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman", "Maktabda uxlatishmaydi" kabi. Maktab tashqi atributlari shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy motiv bo'la olmaydi. "Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "Yozishni juda yaxshi ko'raman", "O'qishni o'rganaman", "Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman" ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor bo'lgano'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola jamoaga qo'shila

olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o'qishdagi asosiy qiyinchilik shundan iboratki, ko'pincha bu yoshdagi bolalar o'qituvchini uzoq vaqt davomida eshita olmaydilar. O'quv harakatlariga uzoq vaqt diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab faqat shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olishi xususiyatiga ham to'la bog'liq. Chunki shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi vamuvaaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati judakatta.

II. Bob. “Men” konsepsiyasi shakllanishiga ta’sir etuvchi oiladagi ota-onalarning munosabatlarini tadqiq qilish bosqichlari

2.1. Oilaviy munosabatlarning o’ziga xosligi va bolalarda “Men” konsepsiyasining rivojlanish darajalarini tadqiq etish natijalarining tahlili

Oilaviy qadriyatlarnafakat oilaning ma’naviy-psixologik muhitiga ta’sir ko’rsatib, er va xotin o’rtasidagi munosabatlarning xarakterini belgilaydi, balki bizning fikrimizcha, ular shu oilada voyaga yetayotgan bolaning ijtimoiy tasavvurlari tizimini, jumladan, o’ziga nisbatan shakllanadigan munosabatning mazmunini ham belgilaydi. Shuning uchun ham biz tanlagan oilalarda ota-onalarning er-xotin sifatidagi rollarining maqbulligini ta’minlovchi qadriyatlar tizimini o’rgandik va ushbu paragrafda tadqiqotlarimiz natijalarini keltiramiz. Oilaviyqadriyatlar, oiladagirollarbo’yichakutayotgannarsalarvaerning (xotinning) rolda’volarishkalasiindividualko’rsatkichlartahlilishuniko’rsatadiki, oilaviyqadriyatlarshkalasibo’yichato’planganballarqanchalikkatabo’lsa, er (xotin) uchunoilayahayotiningushbusohasishunchalikaahamiyatlibo’ladi;

- Erning (xotinning) nikohidagihamkorsifatidagirolibe vositauningxulq-atvoriyo’nalishini, kutishlarinibelgilasa, buholatularningbirlariganisbatanda’volaridarajasinihambelgilaydi.

Ervaxotinningoilaviyqadriyatlarvarolbo’yichaustanovkalariningmuvofiqligierningoilaviyqadriyatlarshkalasivaxotinningoilaviyqadriyatlarshkalasiko’rsatkichlari ballario’rtasidagifarqbilantavsiflanadi. Bufarqqanchalikkambo’lsa, er-xotinoilaviyahayotiningengahamiyatlisohalarihagidagitasavvuri, bir-birigamuvofiqligishunchalikiyuqoribo’ladi.³

ballgachafarqo’zaromuammolimunosabatlargasababbo’lmaydi, 3
balldanortiqfarqesaer-xotino’rtasidagimunosabatlarnizolixaraktergaegaekanligidandarabberadi.

Oiladagishaxslararo’zaroaloqalarningadekvatligierningrolbo’yichada’volari vaxotindanrolbo’yichaijtimoiykutishlario’rtasidagifarqqateng.

Farqqanchalikkambo'lsa, urning (xotinning) rolbo'yichaadekvatligi, demak, xotinning (erning) belgilanganfunksiyalarinishaxsanbajarishgayo'nalganligierning (xotinning) oilafaoliyatidahamkorsifatidagirolinio'ynashinita'minlaydi (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Er-xotinning oilaviy qadriyatlarini tadqiq etish

№	Oilaviy qadriyatlar shkalasi	Ko'rsatkichlar ball hisobida		t
		Ayol	Erkak	
		M±m	M±m	
1.	Jinsiy munosabatlar	5,27±0,67	4,82±0,58	t=0,45
2.	Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqligi (identifikatsiyasi)	7,26±0,54	8,74±0,65	t=2,41 p≤0,41
3.	Ota-ona-tarbiyachi	7,14±0,82	7,85±0,96	t=0,57
4.	Ijtimoiy faollik	6,43±0,56	7,08±0,58	t=0,73
5.	Tashqi jozibadorlik	8,84±0,61	7,12±0,43	t=2,32

Yuqorida keltirilgan 2.1.1-jadvalda nikoh juftligi a'zolari sifatida ota-onaning oilaviy qadriyatlar birin-ketinligini tadqiq etishda olingan ma'lumotlarni qayta ishlashning birinchi bosqichi aks ettirilgan.Undagi yakuniy natijalar oilaviy qadriyatlar ketma-ketligi natijalari ko'rsatkichlarini, ularning oilada bajarayotgan rollari bo'yicha adekvatligini aks ettiradi.

Quyidagi 2.1.2-jadvalda esa er-xotin rollaridan tashqari ota-onalik rollarining oilada qabul qilingan qadriyatlar tizimi bilan mosligi darajalari raqamlarda keltirilgan.

2.1.2-jadval

Er-xotin oilaviy qadriyatlarning muvofiqligi

Oilaviy qadriyatlar	Jinsiy					Shaxsiy o'xshashlik (identifikatsiya)					Ota-ona- tarbiyachi					Ijtimoiy faollik					Tashqi jozibadorlik				
	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
OQSHx	5	3	5	7	3	6	5	7	8	8	1	1	1	1	1	8	8	1	1	1	1	1	7	1	1
OQSHe	5	6	5	7	3	4	7	6	8	8	1	1	1	1	1	1	8	1	1	1	1	8	1	1	1
SSTS	1	0,5	1	1	1	0,7	0,7	0,9	1	1	0,7	0,8	0,7	0,9	1	0,5	1	0,7	0,9	0,9	0,7	0,6	0,5	0,7	0,9

Buyerda: OQSHevsOQSHx
mosravishdaerningvaxotinningoilaviyyqadriyatlarishkalalaribo'yichako'rsatkichlar,
OQM – er-xotinoilaviyyqadiryatlarningmuvofiqligi.

Ushbujadvaldaesaer-xotinjuftliklariningbajarayotganrollaribo'yichashakllanganustanovkalaridagio'zaro muvofiqlikaksettirilgan.

2.1.3-jadval

Er-xotin juftligining roli ustanovkalar bo'yicha adekvatligi

Oilaviy qadriyatlar	Rolli ko'rstmalar										eRB A					Rolli ko'rsatmalar										xRBA				
	Dx					Ke					Dx-Ke					Dx					Kx					De-Kx				
t/rNo	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
Ota-ona-tarbiya	5	5	3	8	7	8	9	6	8	9	3	4	3	0	2	7	4	8	9	6	5	5	7	8	8	2	1	2	1	2
Ij. Faollik	8	3	8	9	7	9	5	7	7	7	1	2	1	2	0	5	1	5	9	7	9	5	7	7	8	4	4	2	2	1
Tashqi joziba	9	4	8	9	5	6	9	7	8	7	3	5	1	1	2	5	8	0	5	4	7	4	5	9	7	2	4	5	4	3
											-1.-11.-1.3.-4															-4.-1.-6.-1.-6				

RAe – urning rol bo'yicha adekvatligi, RAx – xotinning rol bo'yicha adekvatligi; De va Dx – mos ravishda er va xotinning rol bo'yicha da'volari; Ke va Kx – mos ravishda er va xotinning rol bo'yicha kutayotgan narsalari, No t/r – er-xotin juftliklarining tartib raqamlari.

Shunday qilib, jadvallar yordamida biz nikoh juftligida oilaviy qadriyatlar ierarxiyasini, uning muvofiqlik darajasi va er-xotinning oilada bajarayotgan rollari bo'yicha adekvatligini aniqladik.

Natijalarni tahlil qilar ekanmiz, biz mos kelish darajasi eng kamligi bilan tavsiflanuvchi oilaviy qadriyatlarga e'tiborni qaratamiz, chunki ularning bir-biriga muvofiq bo'lmashligi er-xotin juftligida rol bo'yicha nomuvofiqligi oilada shaxslararo munosabatlar barqarorligini buzuvchi va nizolarni keltirib chiqaruvchi omil hisoblanadi. Aynan shu holatlar ota-onaning bola ijtimoiy tasavvurlari, jumladan, o'zi haqidagi tasavvurlari shakllanishiga ta'sir etuvchi omil rolini o'ynaydi. Biz ota-onalar munosabatidagi o'zaro aloqadorlikning farzandlari bilan bo'ladigan munosabatlarga ta'sirini quyidagi uchta asosiy jihat nuqtayi nazaridan baholadik.

Birinchi jihat – ota-ona tomonidan farzandining holatini idrok qilish, empatiyaga moyillik kabi tomonlarni qamrab oladi. (Tadqiqotda ota-ona munosabati tavsifnomasining o'zgaruvchanlik diapazoni – $W_n=2,5 - 4,5$ qabul qilingan).

Ikkinchi jihat – emotsional bo'lib, ota-onaning farzandlari bilan o'zaro aloqa jarayonidagi hissiyotlarni, o'z bolasini shartsiz qabul qilish darajasini, o'zini kattalar tomonidan ota-ona sifatida qabul qilinishi va ota-ona bolalar munosabati ustunlik muhiti quyidagi natijani beradi – $W_n=2,7 - 4,9$.

Uchinchi jihat – xulq-atvor bilan bog'liq bo'lib, u ota-ona ongida “Ota-ona va bolalar” munosabatlari tizimida farzandning hissiyotlariga, emotsional holatiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini nazarda tutadi – $W=2,7 - 4,5$.

Izlanishimiz davomida biz maktabgacha yoshdagi katta bolalarning ota-onalari psixologik-pedagogik madaniyat darajasini tavsiflovchi ota-ona munosabatlari umumiy ko'rsatkichlari onalar va otalarda mos ravishda quyidagi variantlarning namoyon bo'lishini ko'rdik – $W_n=3,0$ dan $4,9$ gacha; $3,0$ dan $4,4$ gacha. Onalar va otalarda ota-ona munosabatlari umumiy ko'rsatkichlarining muvofiqlik darajasi 0 dan $0,5$ gacha bo'ldi.

Tekshiruvlarimiz davomida ota-onalar keyinchalik matematik ishlov beriladigan standart anketalarni ham to'ldirdilar. Bunda tanlab olingan bolalarning ota-onalari yuqorida sanab o'tilgan asosiy tavsifnomalarni ilgari ishlagan uslublarimiz yordamida olingan o'rtacha mezon qiymatlariga yaqin bo'lgan son ko'rsatkichlarini namoyish etdilar.

Ota-ona munosabati umumiy ko'rsatkichlarning mos kelishi bo'yicha ota-onalarning uch guruhi aniqlandi: farq 0 – ya'ni to'liq mos kelish 20% juftlikda, $0,1$ dan $0,2$ gacha – 44% juftlikda, $0,3$ dan $0,5$ gacha – 36% juftlikda. Biroq shuni qayd etish kerakki, bunday bo'linish shartli hisoblanadi, chunki tadqiq etilayotgan shaxslar tarkibi eng gomogen va aynan ota-ona munosabatining o'z tavsifnomasi bo'yicha kam defferensiyalangan bo'lib, ularning mos kelish ko'rsatkichlari juda katta va hattoki eng katta farq ham maksimal ko'rsatkichning atigi 10% ni tashkil etadi.

Shuningdek, onalar va otalarning otalik va onalik munosabatlari orasidagi korrelatsiya munosabatlari o'rganilganda ularda o'zga manzaraning guvohi bo'lindi (2.1.5-jadval).

2.1.5-jadval

Onalar va otalarning otalik va onalik munosabatlari ko'rsatkichlari orasidagi korrelatsiya koeffisientlari.

N=45

	Onalar	Otalar
Onalar	1	0,674**
Otalar		1

Izoh: **p<0.01

Korrelatsion tahlil natijasiga ko'ra ota-onalarning otalik va onalik munosabatlari ko'rsatkichlari o'zaro ijobiy bog'liqlikka ega bo'ldi ($r=0.674, p<0,01$). Bundan ko'rinadiki, bolalarning xulq-atvori, xissiy munosabatlarini shakllantirishda otalik va onalik munosabatlarining o'zni muhimligini tasdiqlay olganlar. Turmush qonuniyatlariga ko'ra ham ota-onalikka munosabatning bunday tus olishi tabiiy bo'lishi, shubhasiz.

Eksperimental tadqiqot davomida olingan natijalar 2.1.6-jadvalda aks ettirilgan.

2.1.6-jadval.

Ota-onalar juftliklarini ota-ona munosabatlari ko'rsatkichlari darajasiga qarab taqsimlash

Ota-ona munosabatlarining ko'rsatkichlar darjasi	Ota-ona munosabati ko'rsatkichlari darajasida guruhlar soni (%)		
	Onalar munosabati	Otalar munosabati	
Past 3b gacha	-	6	-
O'rta 3-3,9b.	67	57	10
Yuqori 4-4,9b.	33	37	90

Shunday qilib, ota-ona munosabati ko'rsatkichlarining o'zgaruvchanlik doirasi biz tadqiq etayotgan onalar va otalar kontingenti doirasida mos ravishda quyidagicha bo'ldi: Wn=3,0 dan 4,9 gacha; 3,0 dan 4,4 gacha, bu ko'rsatkichning 32-39%ni tashkil etdi. Onalar va otalarda ota-ona munosabatlari umumiy ko'rsatkichlarining mos kelish darajasi 0 dan 5 gacha bo'ldi. Ya'ni, otalar va onalarning o'z ota-onalik rollariga nisbatan baholaridagi muvofiqlikning darajasini

umuman olganda o'rtadan yuqori, deb tavsiflash mumkin. Buni biz "Men va mening bolam" testi natijalari bilan solishtirib ko'ramiz.

"Men va mening bolam" testi bo'yicha rasmda ota-ona va bolaning borligi, bola obrazining mazmuni va uning yoshi, ona (ota) bilan bolaning birgalikdagi faoliyati, psixologik masofa, shuningdek, psixodiagnostikada qabul qilingan rasmning formal belgilari (chiziqli sifati, varaqda joylashuvi, rasm detallari va hokazo) bo'yicha umumiy holat (ko'ngildagidek hokazo, o'ziga ishonmaslik, hadiksirash, rasmda ifodalangan antipatiya va nizokashlik belgilari) tavsifnomasi hisobga olindi. Natijalar tahlili rasmiy testing boshqa ko'rsatkichlar bilan barqaror uyg'unlashuvchi diagnostik qiymati katta ekanligini ko'rsatdi. Shuni ham hisobga olish kerakki, rasmlar sinovda ishtirok etayotgan hamma otalardan ham olinmadi, natijalar muvofiqlik holatlari yaqqol ifodalangan holatlar yuzasidan chiqarildi. Olingan ma'lumotlar o'ziga ishonmaslik, nizokashlik va hadiksirash simptomlarining unchalik aniq ifodalanmaganligini ko'rsatdi.

Dalillarni asoslash uchun quyidagi rasm turlarini ajratib ko'rsatdik:

- Ko'ngildagidek vaziyat – yuqori ko'rsatkichlar: (qoniqqanlik ishonch qabul qilish) 21-30b;
- Nisbatan ko'ngildagidek vaziyat – o'rtacha: (qoniqqanlik-ishonch-qabul qilish) 11-20b;
- Ko'ngilsiz vaziyat – past : (qoniqqanlik-ishonch-qabul qilish) 1-10b;

Test o'tkazish natijasida ikki guruhdagi – ko'ngildagidek va nisbatan ko'ngildagidek vaziyatli rasmlar aniqlandi. Biz rasmlarda quyidagi xususiyatlarni aniqladik va tavsifladik:

1)O'zini bola bilan identifikatsiya qilish: obraz, qiyofa va faollikada-yuqori daraja 12-18b, o'rtacha daraja – 6-11b, past daraja – 0-5b;

2)Onaning jins-rol bo'yicha aynan bir xilligi: yuqori daraja 4-6b o'rtacha daraja 2-3b, past daraja 0-1b.

3) Bolaning jins-rol bo'yicha aynan bir xilligi: yuqori daraja 4-6 b, o'rtacha daraja - 2-3b, past daraja 0-1b.

Tadqiqot davomida biz onalar chizgan “Men va mening bolam” rasmlarida quyidagi mazmuniy belgilarni aniqladik va baholadik:

1. O'zini bola bilan tashqi jihozlanish bo'yicha uyg'un obrazda ifodalanganlar – a) birxil kiyim-bosh va oyoq kiyimi (kiyinish tarzi-bashang kiyim, sport kiyimi, ish kiyimi, uy kiyimi; jins bo'yicha aynanlik –ayollar ko'ylagi, yubka yoki shim; ko'ylak fasoni; etik yoki tufli, o'xshash detallar rasmi, tugmalari, cho'ntaklari,yoqasi);

- b) bir xillik (sumka, gullar) yoki tipik aksessuarlarning mavjudligi;

a) va b) bo'yicha ularning ifodalanganlik darajasiga qarab 1 – 3 ball berilgan, maksimum – 6 ball.

2. O'zini bola bilan yuz va tana qiyofasida identifikatsiya qilish – a) yuz ko'rinishi (bir xil chiziqlar sifati, tasvirda mayda qirralarning mavjudligi, chiziqlarning o'xshashligi, umumiy tasviriy tarz, yuz ko'rinishining o'xshashligi); b) ko'zguli holatlar (aynan bir xil, yoki bir-birini to'ldiruvchi), a) va b) bo'yicha ularning ifodalanganlik darajasiga qarab 1 – 3 ball berilgan, maksimum – 6b.

3. O'zini bola bilan faollikda identifikatsiyalash – a) istalgan turdagi umumiy faoliyatning (o'yin, mehnat, bilim olish, kommunikativ) mavjudlik; b) rasmdagi dinamika (bir-biriga tomon yoki bir xil yo'nalishda umumiy harakatlanish); a) va b) bo'yicha ularning ifodalanganlik darajasiga qarab 1 – 3 ball berilgan, maksimum 6b.

4. Onaning jinsiy yo'llar bo'yicha aynan bir xilligi – a) kiyim (rasm chekkalari hoshiyalangan yoki ayol figurasini bo'rttirib ko'rsatuvchi ko'ylak, aksessuarlar – bezaklar, belbog', sumkacha; tufli – bejirim, uchi o'tkir, poshnali); b) yuz (bo'yalgan lablar, kipriklar, ko'zga e'tibor qaratish – atrofi chizilgan va bo'yalgan, ayollar soch turmagi yoki uzun sochlar, ziraklar); a) va b) bo'yicha ularning ifodalanganlik darajasiga qarab 1 – 3 ball berilgan, maksimal 6b.

5. Bolaning jinsiy rol bo'yicha aynan bir xilligi – a) yuz, soch turmagi, kiyim, oyoq kiyimi va aksessuarlar – jinsga mos keluvchi; b) faoliyat – jins bo'yicha tiplashtirilgan; a) va b) bo'yicha ularning ifodalanganlik darajasiga qarab 1 – 3 ball berilgan, maksimal – 6b.

Yuqoridagi xususiyatlar yoki sifatlar bo'yicha umumiy ball miqdori quyidagi tarzda hisoblandi: onaning bola bilan umumiy jins bo'yicha aynan bir xilligi – $t/r.(1+2+3)$, ona va bolaning umumiy jins bo'yicha aynan bir xilligi – $t/r.(4+5)$, ona va bolaning umumiy identifikatsiyasi – $t/r.(1+2+3+4+5)$, aynan bir xillik tuzilishi – $t/r.(1+2+3(4/5))$.

Ushbu jihatdan olingan natijalarimiz 2.1.7-jadval va 10=ilovada keltirilgan.

2.1.7-jadval

“Men va mening bolam” proyektiv rasmlı testi va bolalar xulq-atvorining jins bo'yicha tipizatsiyasini kuzatish natijalari

	Umumiy identifikatsiya	Onaning bola bilan identif.	Umumiy jins-rol bo'yicha identif.	Onaning jins-rol bo'yicha identif.	Bolaning jins-rol bo'yicha identif.
Umumiy udenfikatsiya	1	0,438*	-0,262	0,857*	0,038
Onaning bola bilan identif.		1	0,467*	0,708*	0,846**
Umumiy jins-rol bo'yicha identif.			1	0,237	0,856**
Onaning jins-rol bo'yicha identif.				1	0,538**
Bolaning jins-rol bo'yicha identif.					1

Izoh: * $p<0,05$, ** $p<0.01$

Jadvalda keltirilgan natijalarga murojaat etaylik.“Men va mening bolam” proyektiv testi natijalarga tayanib, onalarning farzandlari bilan identifikatsiyalashuvini bir necha jabhada baholashga erishildi. Buning uchun ular orasidagi ichki bog'liqlik va munosabatlar korrelatsion tahlil etildi (3.3.7-jadval).

Tadqiqot natijalarida onaning farzandi bilan identifikatsiyalashuvi bolaning o'zini anglashda yetakchi o'rin tutadi, degan xulosani asoslashimizga sabab bo'luvchi asoslar yetarli, ya'ni ona doimiy ravishda farzandining tuyg'u va kechinmalarini his etishga, uning jins jihatidan o'zini anglashida ham belgilovchi o'rniga ega ekanligini aytib o'tish lozim. Chunki onaning bola bilan identifikatsiyalashuvi umumiy holatdagi identifikatsiyalashuvida ($r=0,438$, $r<0,05$), umumiy jinsiy rol bo'yicha identifikatsiyalashuvida ($r=0,467$, $r<0,05$), onaning

jinsiy rol bo'yicha identifikatsiyalashuvida ($r=0,708$, $r<0,01$), bolaning jins rol bo'yicha identifikatsiyalashuvida ($r=0,846$, $r<0,01$); shuningdek, onaning jins-rol bo'yicha identifikatsiyalashuvi bilan bolaning jins-rol bo'yicha identifikatsiyalashuvini kuzatishimizga ($r=0,538$, $r<0,05$ to'g'ri keladi).

Bundan ko'rinib turibdiki, ona ta'siri farzandning tarbiyasi, ijtimoiylashuvi va o'zini anglashda yetakchi omillardan biri sifatida gavdalanadi.

10 – ilovadagi natijalarga ham murojaat etganimizda bolaning jins-rol bo'yicha aynan bir xilligi xulq-atvor belgilari (kuzatuv) va uning jins-rol bo'yicha aynan bir xillik ko'rsatkichlari (ona rasmi) o'rtasida yaqqol ifodalangan aloqa bo'lib, bu a) rasmning axborotlilik darajasidan dalolat beradi va b) ona ongida bola obrazining jins-rol bo'yicha xulq-atvor stereotiplarini o'zlashtirish darajasi o'rtasida aloqa mavjudligini aniqlaydi. Otalar rasmi bilan vaziyatda bu rasmlar mavjudligini o'ziyoq diagnostik hisoblanadi, chunki faqat 25% erkaklarga bu sinovni o'tkazishga ruxsat beradilar. Biz otalarning "Men va mening bolam" rasmini chizishni ota-ona mas'uliyati, tarbiya jarayoniga jalb etilganligi va manfaatdorlik darajasi yuqoriligini dalil sifatida baholaymiz. Xuddi shu tarzda biz onalarning rasminichizishda rangli qalam va flomasterlardan foydalanishlarini ham baholaymiz- bu sinovda ishtirok etayotganlarning 20% iga teng bo'ldi. Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi rasmning proyektiv qimmatini va axborot uchun berilganligidan dalolat beradi hamda ona ongida bola obrazining jins-rol bo'yicha ifodalanganligi va uning jinsiy ijtimoiylashuvi – jins-rol bo'yicha xulq-atvor stereotiplarini o'zlashtirish darajasi o'rtasida aloqa borligini tasdiqlaydi. Shu tariqa, proyektiv test davomida olingan ma'lumotlarning sifat tahlili verbal uslubiyatni qo'llash davomida olingan natijalarni tasdiqlab beradi.

Ilovadagijadvaldanyanashunietirofetishmumkinki,
tajribadaqatnashganonalarining
60%io'zlarinifarzandlaribilanidentifikatsiyaqilinishiniyuqoribaholaganbo'lsalar,
otalarbujihatdanhamonalardanbirozpastko'rsatkichlarni – 40% niko'rsatdi.
O'zlarini past identifikatsiyada baholagan otalarga nisbatan shunday toifali onalar
atigi 10% ni, ya'ni bir kishini tashkil etdi. Endi jinsiy rollar nuqtaiy nazaridan bir-

birini identifikatsiya qilishda onalar bilan farzandlarning baholari o'rtasida kechin farq yo'q: farzandlarning 43 foizi vaonalarning 33 foizi bu mavqeda bir-birlarni yuqori baholagan bo'lsalar, past baholavchilar teppa-teng chiqdi (3 nafardan). Ko'p holatlarda onaning bahosi bilan farzandning bahosi bir-birga yaqin, masalan, past baholaganlar past yoki o'rtacha, yuqorilar yuqori va hokazo. Demak, umuman olganda, onalarning farzandlar bilan identifikatsiya otalarnikiga nisbatan tahlil qilinganda ancha yaqin va o'xshashdir.

Shunday qilib, maktabgacha bo'lgan yoshda yosh bo'yicha aynan bir xillik jarayoni umuman olganda yakunlanish bosqichiga yaqinlashgan, ya'ni o'z yoshiga oid tasavvurlarning shakllanganlik darajasi o'rtachadan baland; ijtimoiy jihatdan jamiyatdagi o'rnini anglash endi shakllanayotgan, ya'ni yaqin turgan ijtimoiy muhit to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarning shakllanganlik darajasi o'rtachadan past; bolaning o'z jinsi bilan bog'liq rollar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanganlik darajasi pastdan yuqorigacha bir xilda taqsimlanadi. Nominativ tasavvurlar, ya'ni o'z ismi, uning ma'nosi atrofidagi tasavvurlar ham mavjud bo'lib, ular shu yosh uchun yuqori darajasi shakllangan; qadriyatlar identifikatsiyasi esa endi rivojlanish bosqichida ekanligi ma'lum bo'ldi. Ushbu fikrlarning identifikatsion tasavvurlar nuqtai nazaridan olingan va biz tomonimizdan umumlashtirilgan ma'lumotlar quyidagi 3.3.8 – jadvalda keltirilgan.

2.1.8-jadval

Bolalarning “Men” konsepsiyasiga oid tarkibiy qismlarning shakllanishi bo'yicha taqsimlash

N=45

“Men” konsepsiyasi komponentlarning shakllanganlik darajasi	“Men” konsepsiyasi komponentlarning shakllanganlik darajasi bo'yicha guruhlar soni (%)				
	Nominative	Yoshga oid	Jinsiy	Ijtimoiy	Qadriyatli
Past	0	0	43.3	50	96.7
O'rta	0	50	36.7	46.7	3.3
Yuqori	100	50	20	3.3	0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ko'rsatkichlarning maksimal doirasi maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning o'z jinsiga rollar bo'yicha aynan bir

xilligiga xos bo'lib, bu ko'rsatkich 1 dan 10 ballgacha, yosh bo'yicha va ijtimoiy aynan bir xillikning dolzarb darajalari o'zgaruvchanlik doirasi mos ravishda 30 va 20%ga past. Bunda jins-rol bo'yicha aynan bir xillik yuqori ko'rsatkichlariga bolalalarning 20%i ega, yosh bo'yicha – 50% va ijtimoiy mavqega moslik – 3.3%, o'rtacha mos ravishda – jins bo'yicha 36.7%, yosh bo'yicha – 50% va ijtimoiy aynan bir xillik – 46.7%. Jins-rol bo'yicha aynan bir xillikning past ko'rsatkichlari – 43.3%da, yosh bo'yicha –0%, ijtimoiy aynan bir xillik bo'yicha – 50%da. Ya'ni, sinovda ishtirok etayotgan bolalarning 100% i amalda yosh bo'yicha erishilgan identifikatsiyani (darajalar nisbati – yuqori 50; o'rtacha 50; past 0), taxminan 50%i endi shakllanishni boshlayotgan ijtimoiy identifikatsiyani (darajalar nisbati – yuqori 3; o'rtacha 47; past 50) va 57%i faol rivojlanayotgan jins-rol bo'yicha identifikatsiyani (darajalar nisbati – yuqori 20; o'rtacha 37; past 43) namoyish etadi. Shunday qilib, ko'rib turibmizki, mazkur bosqichda yosh bo'yicha aynan bir xillik amalda yakunlangan bo'lib, ijtimoiy aynan bir xillik eng boshlanayotgan, end yaqqol ifodalangan, jarayon esa bolaning jins-rol bo'yicha aynan bir xillikning rivojlanishi hisoblanadi. Bularning barchasi shakllanayotgan “Men” konsepsiyasining ushbu bosqichdagi asosiy tarkibiy qismi sifatida jins-rol bo'yicha aynan bir xillikni hamda maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning o'zini anglash jarayoni dadil shakllanayotganligini ko'rsatadi.

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolaning “Men” konsepsiyasi shakllanishiga ta'sir etuvchi oiladagi shaxslararo munosobatlarni o'rganish natijalari

Biz tadqiqotimizning ushbu bosqichida maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolaning “Men” konsepsiyasi shakllanishiga ta'sir etuvchi oiladagi ota-onalarning o'zaro ep-xotin hamda sifatidagi munosabatlarining o'ziga xosliklarini o'rganishga harakat qildik. Ma'lumki, oiladagi shaxslararo munosabatlar tabiatli bo'yilib, unda rolli munosabatlar bevosita shaxslararo munosabatlar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

Oiladagi shaxslararomunosabatlar xarakteriga ko'ra er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning o'z farzandlari bilan shaxslararo munosabatlarga bo'linadi.

Biz maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarning psixologiyasidagi shunday jihatga e'tiborni qaratdiki, ular aynan shu davrda o'z qiziqishlari, yetakchi faoliyati bo'lgan syujetli-rolli o'yinlardagi harakatlari bilan birgalikda ijtimoiy dunyoning, avvalo, ota-ona oilasidagi rollarga va o'zaro munosabatlarga e'tiborli bo'lib, aynan ota-onalikka xos qiliqlarni o'zlashtirishga kiritdilar. Bola bundan uning oilada ro'y berayotgan voqea-hodisalarning kuzatuvchisi va ishtirokchisiga aylanib, bu jarayonlar qanchalik dinamik bo'lsa, shunchalik faol va qiziquvchan bo'ladi, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan ko'proq, to'laroq va turli-tuman axborotlarni oladi, o'zlashtiradi va fikrlaydi. Bunda oila bola "Men" ini shakllantiruvchi muhimijtimoiy muhitga aylanib, o'zining ushbu muhitga aloqadorligini anglashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yerda shu qayd etib o'tish joizki, ijtimoiy psixologlarning fikricha, oiladagi shaxslararo munosabatlar tuzilmasida "ota-ona – bola" munosabatlari evalyutsion jihatdan nisbatan kecki va mazmunan aniqroq hisoblanadi, chunki ular shakllanib bo'lgan er-xotin munosabatlari asnosida vujudga keladi.

Biz tadqiqotimiz davomida aynan nikoh juftligidagi er-xotin munosabatlari bolaning ijtimoiy tasavvurlarida bilvosita ifodalangan ota-onalik munosabatlarga nisbatan moslashuvchan va dinamik bo'lishi, shu sababli bolaning ota-ona munosabatini aks ettirishi uning shaxsida ifodalangan o'zgarishlarga zamin bo'lishiga ishonch hosil qildik. Masalan, onalar va otalarda ota-ona munosabatining umumiy ko'rsatkichlari mos kelish darajasi 0 dan 5 gacha bo'lgan bir paytda oilaviy qadriyatlar iyerarxiyasida umumiy ko'rsatkichlarning mos kelmaslik darajasi 1 dan 11 gacha, ya'ni ota-ona munosabatlarining xuddi shunday ko'rsatkichiga nisbatan 2 baravar katta bo'ldi. Ota-ona munosabatlarining umumiy ko'rsatkichlari mos kelish darajasi bo'yicha ota-onalarning uch guruhi aniqlangan: farq – 0 ya'ni to'liq moslik 20% juftlikda, moslik darajasi yuqori – 0,1 dan 0,2 gacha 44% juftlikda, moslik darajasi o'rtacha – 0,3 dan 0,5 gacha 36% juftlikda.

Biroq, aytib o'tish kerakki, bunday bo'linish shartli hisoblanadi, chunki tadqiq etilayotgan shaxslar aynan ota-ona munosabatlari tavsifnomasi bo'yicha eng o'xshash va kam farq qiluvchi bo'lib, ularning mos kelish ko'rsatkichlari juda yuqori va eng katta farq ham maksimal ko'rsatkichning 10%ini yoki juftlik ichidagi 6,8%ni tashkil qiladi. Oilaviy qadriyatlar ierarxiyasi va oilaviy rol bo'yicha yo'nalganlikdagi muvofiqlik darajasi bo'yicha nikoh juftliklarini biz uch guruhga ajratdik:

- 1) Oilaviy qadriyatlar ierarxiyasining moslik darajasi yuqori bo'lgan juftliklar (farq 0 dan 3 ballgacha) – 60% ;
- 2) Oilaviy qadriyatlar ierarxiyasining moslik darajasi o'rtacha bo'lganlar (4–7)-28%;
- 3) Oilaviy qadriyatlar ierarxiyasining moslik darajasi past bo'lganlar (8-15) – 12%

Er-xotin juftligi a'zolarining oilaviy qadriyatlar ierarxiyasining moslik darajasi nuqtaiy nazaridan farqlanishi oilaviy munosabatlar amaliyotida mojarolarning vujudga kelishiga olib kelishi ko'plab omillar tomonidan e'tirof etilgan (K.Vitaker, V.Satir, V.Karimova) [140], [89], [41].Aynan shu tamoyil bo'yicha biz 60% juftlikda kuzatuvlar olib borib, oilaviy qadriyatlar ierarxiyasining moslik darajasidagi farq 3 balldan ortiq bo'lmagan er-xotinlar orasida nizokashlik darajasi ham yuqori bo'lishini aniqladik. Ayni shunday munosabatlarni muntazam kuzatgan bolada ham o'zi va jamiyatdagi o'z o'rnini to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishida turlicha muammolar bo'lishi muqarrar ekanligini taxmin qildik. Ya'ni, bizning taxminimizcha, bola “Men” konsepsiyasining rivojlanganlik darajasi er-xotin munosabatlari bilan o'zaro bog'liqlikka ega lekin “ota-ona-bola” munosabatlarning xarakteri bilan bunday uzviylik kuzatilmaydi. Bizning datlabki taxminimiz shundan iborat ediki, ota-ona munosabatlari mohiyat jihatdan maktabgacha yoshgacha bo'lgan bolaning shaxs sifatida o'zini anglashda yoshiga oid, jinsiga oid va ijtimoiy mavqeyga oid kongnitiv tasavvurlarning shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Zero, ota-onalik roli bilan er-xotinlikrollari o'rtasidagi o'ziga xos farq bunda katta rol

o'ynaydi. Chunki bolaning ota-onasiga bo'lgan munosabatlari, ularning aynan ota va ona deb idrok qilishi orqali o'z tasavvurlarini boyitishi, avvalo, uning kelajakdagi obrazini, katta yoshdagi shaxs sifatidagi obrazini shakllantiruvchi tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtaiy nazardan bolaning ko'z oldiga keluvchi dinamik oilaviy vaziyat, oilada kattalar o'rtasidagi mazmuniy jihatlariga boy o'zaro munosabatlar, ota-onaning faol ijtimoiy va ma'naviy hayoti silsilasi voqea-hodisalarga maksimal darajada boy bo'lgan holda bolaning ham faolligini uyg'otib, uning shaxs sifatida rivojlanish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ota-ona timsolida er va xotin munosabatlarini idrok etishi tasirliroq bo'lib, uning yaqin kelajakdagi ijtimoiy xulqining asoslarini tashkil etadi.

Shunday qilib, oiladagi ichki munosabatlar va ota-onaning bolaga munosabati ta'siri ostida shakllanuvchi birlamchi o'ziga munosabat, o'zini identifikatsiyalashning barcha ko'rinishlarida va kommunikativ faoliyat subyekti sifatida bolaning birlamchi kichik ijtimoiy guruh sifatida oilada o'zini anglashi rivojlanishini hal qiluvchi omili hisoblanadi. Bunda nafaqat er-xotin ota-ona o'rtasidagi munosabatlar va ularning bolaga bo'lgan munosabati balki aynan shu munosabatlarning bevosita u bilan muloqotda aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolada o'ziga nisbatan munosabat ota-ona bilan muloqoti ta'siri ostida shakllanishi isbotlandi, ya'ni bolalardan olingan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, ulardagi aksariyat belgi va xislatlar, avvalo, onasining ta'sirida shakllanadi. Bu yoshda o'zini baholashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yagona omil bu – ota-ona, xususan, onaning farzandiga bo'lgan munosabatining yaxshi emasligidir. Masalan, bizning eksperimentda, o'zini baholashga o'rtacha umumiy bahosi 3.8 ballga ega bo'lgan faqat bir nafar bola “Men va mening bo'lam” proyektiv rasmi testida uning onasi tomonidan identifikatsiya darajasi past bo'lganligi uchun shunday natijani berdi. Boshqa barcha bolalarning (97%) onalarni rasmda yuqori yoki past darajali identifikatsiyani bilan taqdim etilgan bo'lib, ularning o'rtacha darajasi 4.8 ball bo'lgan. Bizningcha,

faqat etarli darajada ota-ona mehridan bahra olmagan bolalargina maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalikdayoq o'z imkoniyat va qobiliyatlarini beqaror, o'ta tanqidiy baqolaydi. Aynan shu kabi xulosalar boshqa tadqiqotlarda, masalan, O.V.Lobza [149] tomonidan ham aniqlangan edi.

Shunday qilib, maktabgacha bo'lgan kata yoshdagi bolalarda oilaviy qadriyatlar va ular ta'sirida shakllanadigan "Men" konsepsiyasining pastligi aniqlandi.

Bizning fikrimizcha, shubhasiz, bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari kamdan kam hollarda neytral, bahosiz xarakterga ega bo'lib, o'ziga emotsional-qadriyatli munosabat bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa maktabgacha bo'lgan yosh davomida "Men" konsepsiyasining asosan affektiv, emotsional-qadriyatli tarkibiy qismlari shakllanishi va fakat bu davrning oxiriga kelibgina asosiy e'tibor kognitiv sohaga o'tishidan dalolat beradi. Bunda "Men" konsepsiyasi kognitiv va affektiv tarkibiy qismlari hali bir-biridan qam, ichki jihatdan qam unchalik differentsiyalanmagan bo'lib, buni biz doimo emotsional ijobiy bo'lgan o'zini baholashni tadqiq etishda ko'rdik. Ko'rib tupibimizki, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning "Men" konsepsiyasi barcha tarkibiy qismlarida (o'zini baholashni istisno qilganda) albatta jins-rol bo'yicha tushuncha mavjud bo'lib, bolaning belgilangan jins vakili sifatida o'zi haqidagi tasavvur namoyon bo'ladi, ya'ni, parallel ravishda o'tuvchi turli identifikatsiya jarayonlari yig'indisi bu yoshda, avvalo, jins bo'yicha identifikatsiya bilan bog'liq, yosh bo'yicha identifikatsiya korrelyatsiyasi $r = 0.65$, ijtimoiy identifikatsiyaning korrelyatsiyasi $r = 0.84$ ni tashkil qiladi.

Kelitirilgan materiallar bizga o'zini muayyan jins vakili sifatida jinsiy o'zini anglashning shakllanishi uchun eng senzitiv davr – maktabgacha bo'lgan yosh davri deb hisoblashga imkon beradi, bu davr davomida ushbu struktura jadal sur'atlar bilan rivojlanadi, natijada "maskulinlik" va "femininlik" xususiyatlari, sifat jihatidan yangi ruhiy hosilalarning yig'indisi sifatida jinsi to'g'risidagi tasavvur vujudga kelishi uchun asos yaratiladi. Xususan, "Men" obrazining turli elementlariga aloqador, lekin jins belgilari yoki jinsga mansublikni albatta esga olib o'tuvchi o'zini tavsiflashdan iborat barqaror so'z birikmalaridan hamma joyda

foydalanish bolalar bilan suhbatlashish natijasida aniqlandi. Masalan, men – “kichkina qiz” (jins+yosh), “chiroyli qiz” (jins+tana), “chiroyli Kamola” (jins+ism), “onasini himoya qilishi kerak”, “yoqimtoy va tartibli bo’lishi kerak”, “kuchli va mexribon bo’lish lozim”, “pul ishlab topishi va gul hadya eta olishi lozim”, (jins+burch-huquq), “onasining qizi, otasining qizi”, (jins+ijtimoiy muhit) kabi fikrlar bunga dalildir. Bunda o’g’il bolalarda jins bo’yicha o’zini tavsiflash ko’proq burch-huquq tizimi bilan, shaxsning ijtimoiy makoni haqidagi tasavvur bilan bog’liq bo’ladi, qiz bolalarda esa shu bilan birga, o’zini anglashning jihatlari va aynan bir xillik turlari ham jalb etiladi. Shaxsning o’zini anglashda shakllanish qonuniyatlari uning jihatlaridan biri sifatida jinsiy o’zini anglashning rivojlanishini belgilab beradi, degan taqsimlovchi nazariy qoidalar nima to’g’ri v anima noto’g’ri ekanligini taxmin qilishga imkon beradi. Demak, jinsiy o’zini anglashning rivojlanish darajasini o’rganish bizga bolaning yaxlit tarzda o’zini anglashning rivojlanish darajasi haqida mulohaza yuritish imkonini beradiki, biz bunga ko’plab tasdiqlar topganmiz.

Shunday qilib, maktabgacha bo’lgan katta yosh bizningcha bolaning jinsiga aloqador rollar tizimida o’zini tasavvur qilish uchun maqbul davr bo’lib, o’zini anglashning rivojlanishidagi asosiy yo’nalish esa jinsiy o’zini anglash jarayoni hisoblanadi. Shakllanayotgan jins konsepsiyasi bu davrdagi asosiy yangilikka aylandi, uning shakllanish darajasi mos keluvchi aynan bir hillikning shakllanganlik darajasi kabi mazkur yosh davrida “Men” konsepsiyasi rivojlanishining umumiy darajasini tavsiflaydi va uni baholash mezon bo’la oladi. Shu tariqa, bizningcha, maktabgacha bo’lgan katta yoshdagi bolalarda jinsiy o’zini anglashning rivojlanish darajasi “Men” konsepsiyasining markaziy tizim hosil qiluvchi va integratsiyalovchi tarkibiy qismi sifatida bolaning “Men” obrazi shakllanishining umumiy darajasini aniqlash va uning o’zini anglash jarayonining rivojlanish bosqichlari asosiy mezonlaridan biri bo’lib xizmat qila oladi.

Bolaning otasi va onasidagi o’zaro munosabatlar hamda er-xotinlik rollarini idrok qilishda shakllanadigan tasavvurlar ularning verbal nutqida ham o’z tasavvurini topadi: “Men o’g’il bolaman, katta bo’lsam dadamday kuchli va katta

bo'laman", "ona bo'laman, mening bolalarim bo'ladi", "Men ham oyimdek chiroyli va aqlliman", "Oyim meni tuqqanidek, mening ham qornimdan chaqaloq tug'iladi", "Oyimdek nafis va chiroyli".

Birinchidan, bu bolaning er-xotin juftligidagi o'zaro munosabatlarini faol o'zlashtirganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, bunday munosabatlar, bolaga ijtimoiy muhit, birinchi navbatda ota-ona, oilasi, ota-onadan tashqari er-xotin, erkaklik yoki ayollik muhitidan andoza olishi uchun oila eng qulay muhit ekanligini isbotlaydi. Albatta, biz ayni zamonda ommaviy axborot vositalari ta'sirida ma'naviy qadriyatlarni idrok qilish jarayoni murakkab tus olganligini ham inobatga oldik. Shunday qilib, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalikning oxiriga kelib, ishonch xosil qildikki, bu bosqichda deyarli barcha (90%) bolalarda hodisalar, bilimlar va e'tiqodlar sinfini fikran taqdim etish sifatida mantiqiy va ichki ziddiyatlarsiz gender sxemasi shakllanadi va bu xulosa rus tadqiqotchisi D.Martini [63] ishlarida ham tasdig'ini olgan edi. Biz ushbu holatning o'zi va boshqalar haqidagi, bolalar va kattalar haqidagi tasavvurni qamrab oluvchi, tasavvurlar tizimining to'liqligi, hajmliligi va unversalligini ta'minlashga asos bo'lishi lozim va zarur deb hisoblaymiz. Kelajakdagi "Men" obrazi, aksincha, an'anaviy jinsga xos bo'lgan xislatlar bilan boshqa axloqiy-ma'naviy tasavvurlarning uyg'unlashganligi sababli, bolada, ayniqsa, qiz bolalarda axloqiy va an'anaviy jinsiy-tipik jihatlar ham kuzatiladi. Ayrim qizlarda (10%) bu obraz yangi shakllangan ayollikning ijtimoiy-madaniy stereotipi bilan bog'langanligini ham kuzatdik: "Chiroyli, g'mxo'r va ishbilarmon bo'laman", "Aqlli va nafosatli bo'laman", "Kuchli va mag'rur bo'laman", "Mashina haydashim kerak", "Hamma narsani bilish va yaxshi o'qish lozim", "Supurishi, changlarni artishi lozim" kabi.

Pedagogik psixologiyada bola jamiyat tomonidan ahamiyatga ega bo'lgan katta yoshdagi shaxslar (ota-onalar va tarbiyachilar) misolida beriluvchi "erkin" bolalar o'yinlari motivlari, maqsad va usullari bir necha bor tahlil qilindi hamda syujet tarkibini shakllantirish, turli o'yin rollarini olish va o'ynash qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Biroq bu yerda shuni aytib o'tish

kerakki, turli o'yin harakatlari, ya'ni o'yin usullarini maqsadli yo'naltirilgan holda shakllantirish dastlab me'yorlashtiruvchi omilsifatida xizmat qiladi, bunda katta yoshdagilar o'yin uchun sharoitlar yaratishdan tashqari, uning, xususan gender farqlari haqidagi tasavvurlarni steriotiplashtiradi va ularni tarbiyachi shaxsining xosliklariga yaqinlashtiradi. (K.Yung, O.Veyninger, S.Bem, A.Klizovskiy, B.E.Kagan va bosh.). Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiya muassasalaridagi katta guruhlarda nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarda yaqqol misol tariqasida an'anaviy jinsga xos bo'lgan faoliyat va steriotip jinsga oid bo'lgan kasblar bilan shug'ullanayotgan ikkala jins vakillari tasvirlagan kartochkalar taklif etiladi, bu yerda ayol tikuvchi, sut sog'uvchi, sotuvchi, o'qituvchi, kutubxonachi roliga, erkak esa quruvchi, haydovchi, pochtachi, fatograf, rassom roliga namoyon bo'ladi. Tadqiqotimizda ishtirok etayotgan androgonlik sifatleri yaqqol ifodalangan onalarning bolalari ushbu stereotip syujetlarni quyidagicha sharhlaydilar: "Mening oyim tikmaydi, ammo u suratga oladi", "Bizda esa dadam emas, oyim mashina haydaydi", "Oyimning o'ziyu ta'mirlaydi".

Maktabgacha yoshdagi bolaning "Men" obrazini tadqiq etganimizda qo'lga kiritgan natijalarning asosini tashkil etgan "Sen kimsan?", "Kel, tanishaylik!" metodikasi yuqorida tahlil etilgan xulosalarni asosan tasdiqladi. Xususan, o'z huquq va burchlari haqidagi savollarga javob berar ekan, o'g'il va qiz bolalar onaga uy ishlarida yordam berish bo'yicha aniqroq javob berdilar, bunda aniq harakatlarni sharhlash ularga qiyinchilik tug'dirmadi: "polni artish", "o'rinni yig'ishtirish", baliqni boqish", "gullarga suv quyish" – burch va gender steriotiplari tizimidan tashqarida yotuvchi imkoniyatlar: "televizor tomosha qilish", "kompyuter o'yinlari o'ynash", "sayr qilish". Faqat onalari uy bekasi bo'lgan qizlarda sof feminin javoblar no'an'anaviy ayollik burchlari bilan uyg'un e'tirof etiladi: "shirin ovqat tayyorlash", "hammaning qornini to'ydirish", "aqlli bo'lish", "hamma narsani bilish", og'il bolalarda esa "uy supurish, tozalash" kabi ishlar ham qayd etildi.

Shundan so'ng biz, er-xotinning oilaviy qadriyatlar muvofiqlik darajasining ifodalanganligi hamda nikoh juftliklarida onalar va otalarning ota-ona – bola munosabatlari muvofiqlik darajasining harxil ekanligini ko'rdik.

Bob yuzasidan xulosa

Makdabdagiacha yoshdagi bolalarning o'zini-o'zi anglash jarayoni oila muhiti bilan bog'liq tarzda empirik jihatdan o'rganish bizga quyidagi empirik xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. Bolalarning o'zi uchun ahamiyatga ega bo'lgan kattalar tomonidan baholanishi ko'proq differensiyalangan bo'lib, har bir bola o'z ota-onalarini ularga nisbatan o'ziga xos munosabatdadir deb hisoblashadi, onaning bahosi bola uchun o'z bahosidan biroz pastroq ahamiyat kasb etadi.

- o'zini o'rtacha baholaydigan ota-onalar o'z bolasini “sog'lik, chiroy, aqlva xaqarakter” ko'rsatkichlari bo'yicha ham, “omad va baxt” ko'rsatkichlari bo'yicha ham o'ziga nisbatan yuqori baholaydi. Otalar va onalarning o'z bolasini baholashlari baribir nisbatan o'xshash bo'lib, bu holat nukler oilaga juda xosdir;

- o'zini baholashi yuqori va ota-onalar tomonidan ham baholanishi yuqori bo'lgan bolalar o'z ota-onalarining har qanday bahosini, hatto tanqidiy bahosini ham qabul qiladi, ularning fikriga qo'shiladi, bundaylarda o'ziga o'ziga ishonch hissi mavjud va ota-onalar bilan yaqinlik hissi saqlanib qolgan bo'ladi;

- o'zini baholashi yuqori va ota-onalar tomonidan baholash o'rtacha bo'lgan bolalar o'zini baholashda ota-onasining o'zi haqidagi fikri bilan emasligini biladi. Bunday bolalar o'zi to'g'risida shakllanayotgan obrazini o'rtacha namoyish qiladi, bu esa ota-onalar bahosini passiv idrok qilishini keltirib chiqarib, natijada kelajakda o'ziga salbiy munosabatni shakllantiradi;

- o'zini baholash o'rtach ota-onalar tomonidan baholash o'rtacha bo'lgan bolalarda ham ko'proq noadekvat munosabatlar shakllanadi, hissiyotlari keyinchalik uncha aniq namoyon bo'lmaydi, men obrazida noaniq syujetlar bo'ladi;

- o'zini baholash o'rtacha va ota-onalar tomonidan baholash yuqori bo'lgan bolalar ota-onalarining o'zi kutayotgan bahoga nisbatan balandroq baholashi, kelajakda bolaning ijobiy "Men" obrazini shakllantirish uchunqulay muhit yaratadi. Yani aynan shunday holat ko'proq xolis munosabat hamda adekvat o'zini anglashga zamin bo'lishi mumkin.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkazgan muloqotlarimizda o'ziga nisbatan bahoda o'zini u yoki bu jins vakili sifatida o'z ota-onasi bilan identifikatsiya qonunlari ham ko'zga tashlanadi. Nominativ tasavvurlar, ya'ni o'z ismi, uning ma'nosi atrofidagi tasavvurlar ham mavjud bo'lib, ular shu yosh uchun yuqori darajada shakllangan; qadriyatlar identifikatsiyasi esa endi rivojlanish bosqichida ekanligi ma'lum bo'ldi;

- tadqiqotimiz o'z ismini qabul qilish davri bolada 5-6 yoshga borib tugashini va shaxsning rivojlanishi natijasida shaxsiy ismini qabul qilish ro'y berishini tasdiqlaydi. Qabul qilingan ism "Men"konsepsiyasi asosini tashkil qiladi va uning atrofida ism bilan bog'liq bo'lgan ko'plab shaxsiy xarakterli xususiyatlar va o'zi to'grisidagi ijobiy obraz shakllanadi;

-maktabgacha bo'lgan katta yosh, bizningcha, bolaning jinsiga aloqador rollar tizimida o'zini tasvvur qilishi uchun maqbul davr bo'lib, o'zini anglashning rivojlanishidagi asosiy yo'nalish esa jinsiy o'zini anglash jarayoni hisoblanadi. Shakllanayotgan jins konsepsiyasi bu davrdagi asosiy yangilikka aylanadi, uning shakllanish darajasi mos keluvchi aynan bir xillikning shakllanganlik darajasi kabi mazkur yosh davrida "Men" konsepsiyasi rivojlanishining umumiy darajasini tavsiflaydi va unibaholash mezonini bo'la oladi.

3. Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda ijtimoiy rollar va ular bilan bog'liq ustanovkalar ham shakllanishi boshlanadi, bunda oiladagi qadriyatlar va ota-ona qadrlaydigan sifatlarning roli katta:

- maktabgacha bo'lgan katta yoshdagi bolalarda oilaviy qadriyatlar va ular ta'sirida shakllanadigan "Men" konsepsiyasining pastligi aniqlandi;

- oilaviy qadriyatlar nafaqat oilaning ma'naviy-psixologik muhitiga ta'sir ko'rsatib, er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning xarakterini belgilaydi, balki

tadqiqotda isbotlanishicha, ular shu oilada voyaga yetgan bolaning ijtimoiy tasavvurlari tizimini, jumladan, o'ziga nisbatan shakllanadigan munosabatining mazmunini ham belgilaydi. Bunda, ayniqsa, tanlangan oilalardagi ota-onalarning er-xotin sifatidagi rollarining adekvatligini ta'minlovchi qadriyatlari tizimi alohida o'ringa ega;

- otalar va onalarning o'z ota-onalik rollariga nisbatan baholaridagi muvofiqlikning darajasini o'rgangan yuqori, deb tavsiflash mumkin. Bunday holat farzandlarning ijtimoiy rollariga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi;

- umuman olganda onalarning farzandlar bilan identifikatsiyasi otalarnikiga nisbatan tahlil qilinganda anch yaqin va oxshashdir.

4. Maktabgacha bo'lgan yoshda yosh bo'yicha aynan bir xillik jarayoni umuman olganda yakunlanish bosqichiga o'tgan bo'lishi, ya'ni o'z yoshi va unga oid tasavvurlarning shakllanganlik darajasi o'rtachadan baland bo'lishi ishimiz mobaynida aniqlandi;

- lekin shunga qaramay, bolada o'zini o'rtab turgan ijtimoiy muhit to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarining shakllanganlik darajasi o'rtachadan past bo'ladi. Bu bolaning o'z jinsi bilan bog'liq rollar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanganlik darajasi ham pastdan yuqoriga qarab o'zgarishini anglatadi;

5. Bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari shakllanishida oiladagi er-xotinlik munosabatlari:

- bolaga ota-onaning munosabati qanchalik muhim bo'lsa, ularning er-xotin sifatidagi rollarini bajarishdagi muvofiqligi bola shaxsining shakllanishi va "Men" obrazining teran va o'z vaqtida shakllanishiga shunchalik maqbul sharoit hisoblanishi ishimiz mobaynida amaliy ifodasini topdi;

Aynan nikoh juftligidagi er-xotin munosabatlari bolaning ijtimoiy tasavvurida bilvosita ifodalangan ota-onalik munosabatlariga nisbatan moslashuvchan va dinamik bo'lib, shu sababli bolaning ota-ona munosabatini aks ettirishi uning shaxsida ifodalangan o'zgarishlarga turtki bo'ladi;

- bolaning ota-onasiga bo'lgan munosabatlari, ularni aynan ota va ona, deb idrok qilish orqali o'z tasavvurini boyitishi, avvalo, uning kelajakdagi obrazini,

katta yoshdagi shaxs sifatidagi obrazni shakllantiruvchi tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan bolaning ko'z oldida kundalik tabiiy oilaviy vaziyat, oiladagi kattalar o'rtasida mazmuniy jihatlariga boy o'zaro munosabatlar, ota-onaning faol ijtimoiy va ma'naviy hayoti silsilasi voqea-hodisalarga maksimal darajada boy bo'lgani holda bolaning ham faolligini uyg'otib, uning shaxs sifatida rivojlanish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi;

- oiladagi ichki munosabatlar va ota-onaning bolaga munosabati ta'siri ostida shakllanuvchi birlamchi o'ziga munosabat, o'zini identifikatsiyalashning barcha ko'rinishlarida va kommunikativ faoliyat subyektiv sifatida bolaning birlamchi kichik ijtimoiy guruh sifatida oilada o'zini anglashi rivojlanishining hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bunda nafaqat er-xotin – ota-ona o'rtasidagi munosabatlar va ularning bolaga bo'lgan munosabati, balki aynan shu munosabatlarning bevosita u bilan muloqotda aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bizning fikrimizcha, bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari kamdankam hollarda neytral, bahosiz xarakterga ega bo'lib, o'ziga emotsional-qadriyatli munosabat bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa maktabgacha bo'lgan yosh davomida "Men" konsepsiyasining asosan affektiv, emotsional-qadriyatli tarkibiy qisimlari shakllanishi va faqat bu davrning oxiriga kelibgina kongnitiv soha rivojlanishi boshlanishidan darak beradi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini-o'zi anglashiga oiladagi ma'naviy muhit, jumladan, ota-ona va bola munosabatlarining hamda er-xotinlik munosabatlarining hamda er-xotinlik munosabatlarining ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotimiz normal va to'liq oiladagi sog'lom o'zaro munosabatlar bolaning shaxs sifatida kamol topishi va o'zi to'g'risida adekvat munosabatda bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omil ekanligini tasdiqladi. Zero, davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, oiladagi sog'lom ma'naviy muhit bolaning har tomonlama barkamol voyaga yetishining muhim omili, shu bilan birga "Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir".³

O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasida biz bola shaxsi ontogenezinining turli bosqichlarda o'zini-o'zi anglash jarayoni turlicha kechishi, lekin maktabgacha tarbiya yoshi ushbu bosqichlar orasida o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi davr ekanligini, bunda turli ijtimoiy institutlar orasida oila va undagi sog'lom munosabatlar muhitining ahamiyati katta ekanligini asosladi. Bunda oilani tashkil etuvchi asosiy sub'yektlar – erkak va ayolning ota-onalik hamda er-xotinlik rollari va maqomlari boladagi eng asosiy ijtimoiy tasavvurlar, jumladan, o'zi haqidagi tasavvurlar va yaxlit "Men" konsepsiyasining shakllanishida alohida o'ziga xos rol o'ynashi isbotlandi.

Ya'ni bolani o'zini-o'zi anglash jarayoni, uning rivojlanishi, avvalo, o'zini-o'zi anglash subyektlari sifatida ota-onalarning o'ziga xos xulq-atvoriga bog'liq bo'ladi. Ota-onalarning maskulinlik-femininlik darajasi, ularning jinsiy o'zini-o'zi anglashi va oilaviy rollari adekvat – mos bajarilishi boladagi o'z jinsi va unga oid bo'lgan barcha tasavvur va tushunchalarning paydo bo'lishida muhim omildir. Bunda onaning o'ziga yarasha maqomi bo'lib, eng avvalo, boladagi o'z "Men"iga oid barcha ekspressiv, effektiv va emotsional xususiyatning namoyon bo'lishi onaning bolaga hissiy-emotsional yaqinligi bola jinsidan qat'i nazar yetakchi rol o'ynaydi.

³Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008-yil, 56-b.

O'tkazilgan empirik tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolaning "Men" konsepsiyasi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari nuklear oilada yaqqolroq ko'rinishini, bunda birlamchi kichik referent guruh sifatidagi oilaning o'rni, undagi er-xotin hamda ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar turli oilada turlicha bo'lishiga qaramay, muayyan aynanlik va muvofiqliklar mavjudligini ko'rsatadi va umumiy ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarning borligini isbotladi. Birinchidan, shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning o'zi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari tizimining shakllanishida oila omilining roli shundaki, bunda asosiy shakllantiruvchi mexanizm rolini, eng avvalo, oiladagi ma'naviy-ruhiy muhit, tashkil etuvchi ota-ona va yaqinlarning o'zaro munosabatlaridan tashqari ota-onaning farzandga bo'lgan munosabatlari, bola ongida shakllantiriladigan kognitiv fikr-tushuncha va g'oyalar katta rol o'ynaydi. Bu o'rinda tadqiqotimiz otalarning o'zlari hamda o'z farzandlari haqidagi baholari, y'ani ijtimoiy tasavvurlari turlicha bo'lishi, lekin onalarning baholari otalarnikidan yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, ota-onaning o'zaro munosabatlari ta'sirida maktabgacha yoshdagi bola ijtimoiy tasavvurlari tizimida shakllangan "Men" konsepsiyasi besh tarkibiy qismdan iborat bo'lib, unga qadriyatlar konsepsiyasi, nominatsiyalar konsepsiyasi, yosh konsepsiyasi, ijtimoiy muhit konsepsiyasi hamda jins konsepsiyalari kiradi va ular o'ziga xos iyerarxik tuzilmaga egadir. Taraqqiyotning har bir bosqichida ushbu bosqichning yetakchi faoliyati va omillariga bog'liq tarzda uning u yoki bu komponenti yetakchibo'ladi. Biz o'rgangan toifada nominatsiya, jinsga oid konsepsiyalar qadriyatlar konsepsiyasiga nisbatan rivojlanganroq ekanligi ma'lum bo'ldi.

Uchinchidan, maktabgacha yoshdagi taraqqiyot bosqichida jinsiy o'zlikni anglash konsepsiyasi, y'ani shaxsing qaysi jins vakili ekanligiga oid tasavvurlar ustuvor bo'lgani uchun ham ota-ona va ular o'rtasidagi jinslararo munosabatlar o'zlikni anglash jarayoning bosh yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Yosh nuklear oilalarda otaning ustuvorligi tan olinsa-da, jinsiy o'zlikni anglashda bola uchun onaning hissiy yaqinligi ta'sirchandir.

To'rtinchidan, maktabgacha yoshdagi bola "Men" konsepsiyasining tuzilishi, uning ayrim unsurlari, ularning o'zaro nisbati va ontogenezning turli bosqichlaridagi mazmunni, shuningdek, ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi oilaviy munosabatlar bilan o'zaro aloqasi, avvalo, oiladagi munosabatlar va ota-onaning o'zlikni anglash darajasi bilan belgilanadi, nuklear oilalarda erning ham, xotinning ham o'ziga nisbatan munosabatlari darajasi yuqori, aksariyatida o'rtachadan yuqori bo'lgani sababli, ularning bolaga ko'rsatadigan ta'siri ham sezilarlidir.

Beshinchidan, o'zinibaholashning shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, u bolaning o'z "Men"ini baholashi va ota-onaning real bahosi o'rtasidagi aloqani namoyish qilib, bolaning istiqbolidagi psixik rivojlanishini bashorat qilishga imkon beruvchi mexanizmdir. Bunda bolaning ota-onasidan kutayotgan baholar o'rtasidagi farq boladagi adekvat yoki noadekvat bahosi uchun ijtimoiy psixologik turtkidirki, tadqiqotimiz ushbu jarayonda onalar baholarining ancha adekvatligi va farzandlarning ham ular ta'sirida bo'lishini isbotladi.

Istiqbolda biz o'tkazgan tadqiqotning davomi sifatida ushbu jarayonlarni noto'liq oilalar misolida yoki to'liq, ko'p avlodli oilalar misolida ham tadqiq qilinishi maqsadga muvofiqdir.

"Oilada maktabgacha yoshdagi bola shaxsi o'zini-o'zi anglashning ijtimoiy psixologik omillari" mavzusida o'tkazilgan ijtimoiy psixologik tadqiqot natijalarini umumlashtirib, ularni amoliyotda joriy etish borasida quyidagi tavsiyalarni berish mumkun.

1) Bola shaxsi o'zini-o'zi anglashning komponentlari, eng avvalo, oilada shakllanar ekan, ota-onalar o'z farzandlarining ijtimoiy munosabatlariga to'g'ri kirishishlariga yordam ko'rsatuvchilari uchun xizmat qiladigan asosli ma'lumotlarni ish natijalaridan olishlari;

2) Ota-onalar ishning natijalaridan ota-onaning farzandiga munosabatida bolalikning dastlabki davrlaridayoq o'ziga ishonchni, mustaqillikni, atrofdagilar bilan munosabatda faol va vazmin bo'lish, vaziyatni tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida foydalanishlari;

3) MTM psixologlari ish ma'lumotlari va metodikalari asosida bola shaxsi o'zini-o'zi anglash konponentlarining shakllanish darajasini aniqlashlari hamda ularga individual yondashib tegishlik ko'rsatmalar berishlari;

4) Boshlang'ich ta'limga o'quvchilarni qabul qilish jarayonida, shuningdek, maktab psixologlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik qiyofalarini aniqlashda va ularni mavjud ijtimoiy muhitga moslashishlari uchun tavsiyalar, metodologik ko'rsatmalar ishlab chiqishlarida ish metodlari hamda empirik natijalaridan foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

5) Oilaga psixologik xizmat ko'rsatuvchi amaliyotchi-psixologlar, ishning xulosalaridan kelib chiqadigan tavsiyalarni maktabgacha yoshli farzandlarni tarbiyalashda qo'llash mumkinligini inobatga olishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'nbirinchisessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. T.: O'zbekiston, 2003. – 40b.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi: Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2007 – 192b.
3. O'zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. 29 avgust 1998 yil. T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 1998. – 76b.
4. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni//Xalq so'zi. – 2004. – 26 may.
5. I.A. Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T: “Ma'naviyat”, 2008. – 176 b.
6. I.A.Karimov yoshlarimiz – xalqimizning ishonch va tayanchi. – T: “Ma'naviyat” 2006. – 94 b.
7. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda: Prezident Islom Karimovning Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining o'n to'rttinchi sessiyasida ma'ruzasi. 1999 yil 14 aprel. – T: “O'zbekiston”, 1999. – 94 b.
8. I.A.Karimov O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: “O'zbekiston”, 1999. – 74 b.
10. I.A.Karimov Milliy davlatchilik istiqbol mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. – T.: “O'zbekiston”, 1999. – 545 b.
11. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O'zbekiston”, 1997. – 432 b.
12. I.A.Karimov Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T.: “O'zbekiston”, 1996. – 380 b.
13. I.A.Karimov O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: “O'zbekiston”, 1996. – 362 b.

14. I.A.Karimov O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 1992 – 78 b.
15. I.A.Karimov O'zbekiston kelajagi buyuk davlat: O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi o'n birinchi sessiyasida so'zlagan nutq. 1992 yil 8 – 10 dekabr. – T.: “O'zbekiston”, 1992. – 62 b.
16. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: “O'quvchi”, 1992-160 b.
17. Abu Homid G'azzoliy “Kimyoi Saodat”, - T.: Adolat, 2005. – 412.b
18. A.Navoiy “Lison-ut tayr” – T.: “Fan”, 1991. – 464 b.
19. Avdeeva.N.N, Elagina.M.G, Mesheryakova.S.YU. Развитие личности на ранних этапах детства Сб. Психология личности. – СПб,2000.-С. 213. 222.
20. Ananeva.B.G. О проблемах современного человекознанияю – М, ин-т практ. Психологии, 1997. – 380 b.
21. Andreeva.G.M. Социальная психология. Учебник для высших учебник заведений Г.М.Andreeva. – 5-еизд-е., испр. И допю – М . Аспект пресс, 2003 – 364 с.
- 22.Andreeva.NРоль семьи на разных социализации индивида. Динамика изменения положения женщины и семья. – М “Наука”, 1972-с. 4-7.

Илова

Er-xotinning oilaviy qadriyatlarini tadqiq etish

№	Oilaviy qadriyatlar shkalasi	Ko'rsatkichlar ball hisobida		t
		Ayol	Erkak	
		M±m	M±m	
1.	Jinsiy munosabatlar	5,27±0,67	4,82±0,58	t=0,45
2.	Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqlifi (identifikatsiyasi)	7,26±0,54	8,74±0,65	t=2,41 p≤0,41
3.	Ota-ona-tarbiyachi	7,14±0,82	7,85±0,96	t=0,57
4.	Ijtimoiy faollik	6,43±0,56	7,08±0,58	t=0,73
5.	Tashqi jozibadorlik	8,84±0,61	7,12±0,43	t=2,32

Er-xotin oilaviy qadriyatlarning muvofiqligi

Oilaviy qadriyatlar	Jinsiy					Shaxsiy o'xshashlik (identifikatsiya)					Ota-ona- tarbiyachi					Ijtimoiy faollik					Tashqi jozibadorlik				
	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
OQSHx	5	3	5	7	3	6	5	7	8	8	1	1	1	1	1	8	8	1	1	1	1	1	7	1	1
OQSHe	5	6	5	7	3	4	7	6	8	8	1	1	1	1	1	1	8	1	1	1	1	8	1	1	1
SSTS	1	0,5	1	1	1	0,7	0,7	0,9	1	1	0,7	0,8	0,7	0,9	1	0,5	1	0,7	0,9	0,9	0,7	0,6	0,5	0,7	0,9

Er-xotin juftligining rolli ustanovkalar bo'yicha adekvatligi

Oilaviy qadriyatlar	Rolli ko'rstmalar										eRB A					Rolli ko'rsatmalar										xRBA				
	Dx					Ke					Dx-Ke					Dx					Kx					De-Kx				
t/rNo	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
Ota-ona-tarbiya	5	5	3	8	7	8	9	6	8	9	3	4	3	0	2	7	4	8	9	6	5	5	7	8	8	2	1	2	1	2
Ij. Faollik	8	3	8	9	7	9	5	7	7	7	1	2	1	2	0	5	1	5	9	7	9	5	7	7	8	4	4	2	2	1
Tashqi joziba	9	4	8	9	5	6	9	7	8	7	3	5	1	1	2	5	8	0	5	4	7	4	5	9	7	2	4	5	4	3
											-1,-11,-1,3,-4															-4,-1,-6,-1,-6				

Onalar va otalarning otalik va onalik munosabatlari ko'rsatkichlari orasidagi korrelatsiya koeffisientlari.

N=45

	Onalar	Otalar
Onalar	1	0,674**
Otalar		1

Izoh: **p<0.01

Ota-onalarjuftliklariniota-onamunosabatlari ko'rsatkichlaridarajasigaqarabtaqsimlash

Ota-ona munosabatlarining ko'rsatkichlar darjasi	Ota-ona munosabati ko'rsatkichlari darajasida guruhlar soni (%)		
	Onalar munosabati	Otalar munosabati	
Past 3b gacha	-	6	-
O'rta 3-3,9b.	67	57	10
Yuqori 4-4,9b.	33	37	90

“Men va mening bolam” proyektiv rasmlı testi va bolalar xulq-atvorining
jins bo’yicha tipizatsiyasini kuzatish natijalari

	Umumiy identifikatsiya	Onaning bola bilan idenf.	Umumiy jins- rol bo’yicha idenf.	Onaning jins- rol bo’yicha idenf.	Bolaning jins- rol bo’yicha idenf.
Umumiy udenfikatsiya	1	0,438*	-0,262	0,857*	0,038
Onaning bola bilan idenf.		1	0,467*	0,708*	0,846**
Umumiy jins- rol bo’yicha idenf.			1	0,237	0,856**
Onaning jins- rol bo’yicha idenf.				1	0,538**
Bolaning jins- rol bo’yicha idenf.					1

Izoh: *p<0,05, **p<0.01

Bolalarning “Men” konsepsiyasiga oid tarkibiy qismlarning shakllanishi
bo’yicha taqsimlash

N=45

“Men” konsepsiyasi komponentlarning shakllanganlik darajasi	“Men” konsepsiyasi komponentlarning shakllanganlik darajasi bo’yicha guruhlar soni (%)				
	Nominative	Yoshga oid	Jinsiy	Ijtimoiy	Qadriyatli
Past	0	0	43.3	50	96.7
O’rta	0	50	36.7	46.7	3.3
Yuqori	100	50	20	3.3	0